

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSOS TA'LIM VAZIRLIGI**

**Alisher Navoiy nomidagi  
SAMARQAND DAVLAT O'NIVERSITETI  
«IJTIMOIY-IQTISODIYOT» FAKO'LTETI**

**Bitiruv malakaviy ishi  
himoyaga tavsiya etiladi  
«Iqtisodiy nazariya» kafedrası  
mudiri, dots. B.M. Boboqulov**

---

**" \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 2014 y.**

**BITIRO'V MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: Korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlari va ularni pasaytirish**

**Bajardi: «Iqtisodiyot (sanoat)»  
ta'lim yo'nalishi 4-kurs  
talabasi Abdullaeva Firuza**

---

**Ilmiy rahbar: «Iqtisodiy nazariya» kafedrası  
dotsenti. Sh.O. Quvondikov**

---

Samarqand - 2014

## M O` N D A R I J A

**KIRISH**.....3

### **I-BOB. KORXONALARNING ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI VA O`LARNI PASAYTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

- 1.1. Korxonada ishlab chiqarish xarajatlari va uning tasniflanishi.....6
- 1.2. Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va samaradorligini oshirish uslublari.....18
- 1.3. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o`shishni ta`minlashda korxonalarining o`rni va ahamiyati.....26
- 1.4. Korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda xorijiy davlatlar tajribasini joriy etish va u bilan bog`liq muammolar.....32

### **II BOB. IQTISODIYYOTNI MODERNIZASIYALASH SHAROITIDA KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI VA O`LARNI PASAYTIRISH MASALALARI**

- 2.1. O`zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqaror sur`atlarini ta`minlash borasida erishilgan natijalar.....40
- 2.2. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo`llab-quvvatlash va tannarxni pasaytirishning asosiy yo`nalishlari.....47
- 2.3. Korxonalarining eksport salohiyatini mustahkamlash va soliq yukini yengillashtirish borasida amalga oshirilgan tadbirlar.....56
- 2.4. Zarar ko`rib ishlayotgan va iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog`lomlashtirish jarayonida banklarning ahamiyatini oshirish.....60

**XO`LOSA**.....63

**FOYDALANILGAN ADABIYTLAR RO`YXATI**.....65.

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Hozirgi kunda mamlakatimiz hukumati ishlab chiqarishda samaradorlikni oshirishga va maxsulot tannarxini pasaytirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Bunda ishlab chiqarish korxonalarini takshil etish va ularning restrukturizatsiyasi bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, joylarda sanoat ishlab chiqarishiga e'tiborning pastligi ham kuzatiladi. Jumladan, 2009 yilda Samarqand viloyati bo'yicha ishlab chiqarishda sanoat ulushining 12,7%ni tashkil etishi achinarli holdir. Bu esa ushbu sektorda faoliyat ko'rsatayotgan barcha ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanishini faollashtirish, raqobat va ishlab chiqarish muhitini shakllanishini jadallashtirishni taqozo etadi. Mamlakatimizda milliy iqtisodni yanada erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish dasturini qabul qilinishini ishlab chiqarish korxonalarini jadal rivojlantirish ustuvor vazifa qilib qo'yildi. Bu haqida Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov: «...Biz o'z oldimizga kichik, o'rta va xususiy biznesning nafaqat yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarishda yuqori o'rinni egallashga erishishimiz, balki aholi farovonligini va daromadlarini o'sishi, ayniqsa kichik shaharlar va qishloq joylarda bandlik muammosini muhim manbai bo'lishi kerakligi haqidagi vazifani qo'yamiz<sup>1</sup>» - deb alohida ta'kidlagan edi. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun xarakatdagi qonunchilik xujjatlariga tegishli qo'shimchalar kiritildi, ishlab chiqarish korxonalarini qo'llab-quvvatlash tizimlarini takomillashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqilib uni amaliyotda tadbiq etish yo'lga qo'yildi.

Hozirgi vaqtda respublikada ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish va ularni rivojlantirish bo'yicha moddiy-texnika ta'minoti hamda zamonaviy asbob-uskunalarni joriy etish bo'yicha izlanishlar va tadqiqotlar muntazam olib borilmoqda.

Shu bilan bir qatorda ishlab chiqarish korxonalarida zamonaviy texnologiyalarning yetishmasligi, bu boradagi axborotlarning taqchilligi,

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.: O'zbekiston, T.-8, 2000 y.

marketing, menejment va moliyaviy boshqaruv bo'yicha savodxonlikning pastligi, maxsulot sifati pastligi va ishlab chiqarish tannarxining yuqoriligi, huquqiy-me'yoriy xujjatlarning takomillashtirilmaganligi kabi muammolar mavjud.

Bu muammolar ko'p jihatdan ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarning m'yoridan ortib ketishiga yo'l qo'ymoqda. Bu esa muammoning yetarli darajada o'rganilmaganligi, xorijiy davlatlarning bu sohadagi yutuqlari joriy etilmaganligi bilan bog'liqdir.

Yuqorida ko'rib chiqilgan holatlar mazkur dissertasiya izlanishlari mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

**Tadqiqotning maqsadi** korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlari bilan bog'liq tushuncha va ko'rsatkichlarni aniqlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini ochib berish, chuqurroq tahlil qilish orqali korxonalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

O'shbu maqsadga erishish uchun bir qancha vazifalarni amalga oshirish kuzda tutilmoqda. Bular quyidagilarda o'z aksini topgan:

- Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlari bilan bog'liq tushunchalarning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini ochib berish va ularning ta'rifiga izoh berish;
- Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlari samaradorligini tadqiq qilish obyektiv zaruriyat ekanligini asoslab berish;
- Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlaridan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish va aniqlash yo'llarini ko'rsatib berish;
- Korxonalar ishlab chiqarish xarajatlaridan pasaytirishning bir qancha yo'llarini ko'rsatib berish;

Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlariga oid masalalar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy jarayonlar **tadqiqotning predmeti** hisoblanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan turli mulkchilik shaklidagi korxonalar ishlab chiqarish xarajatlaridan foydalanish samaradorligi bilan bog'liq bo'lgan masalalar **tadqiqotning obykti** sanaladi. Korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlaridan foydalanishga oid ayrim nazariy xulosalarni isbotlash uchun "Sino" OAJ ning ma'lumotlardan foydalanildi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston miqyosida ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish, yangi samaradorlikni oshirish mexanizmlarini joriy etishning nazariy hamda amaliy muammolari I.A.Karimovning asarlarida, S.S.G'ulomov, M.Sharifxo'jayev, Yo.Abdullayev, M. Pardayev, B. Abdukarimov, D. Axmedov va boshqa olimlar o'quv asarlarida keng yoritilgan.

**Tadqiqotning nazariy ahamiyati.** Korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish bilan bog'liq tushunchalarning takomillashgan ta'riflari ishlab chiqilganligi, uning ishlab chiqarish samaradorligi kabi masalalarning hal etishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati.** Korxonalar ishlab chiqarish xarajatlaridan foydalanishni yaxlit holda o'rganilib, ularni o'rganishning aniq yo'llari ishlab chiqilganligi bilan baholanadi.

**Tadqiqot ishining nazariy va uslubiy asoslari.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chikilgan O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy yunaltirilgan bozor iktisodiyotiga utishning uziga xos strategiyasi, tamoyil va ustivorlari, xorijiy va vatanimiz olimlarining olib borgan ilmiy ishlari ilmiy izlanishning nazariy-uslubiy asosi bulib xizmat kiladi.

Tadqiqon ishini tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Qonunlaridan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlaridan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining karorlaridan, O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va Statistika Vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi me'yoriy xujjatlari, kursatmalari, buyruklari va xisobotlaridan manba sifatida foydalanildi.

**Ishining tarkibiy tuzilishi.** Mazkur bitiruv ishi kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan.

## **I-BOB. KORXONALARNING ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI VA O`LARNI PASAYTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1. Korxonalar ishlab chiqarish xarajatlari va uning tasniflanishi**

Korxonalar faoliyat yuritish jarayonida moddiy va pul xarajatlarini sarflaydilar. Korxonalarining umumiy xarajatlari ichida ishlab chiqarish xarajatlari eng katta salmoqqa ega. Ishlab chiqarish xarajatlari majmuasi korxonaga mahsulot ishlab chiqarish qanchaga tushushini ko'rsatadi, ya'ni mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladi.

Korxonalar, shuningdek, mahsulotning sotish bo'yicha hixarajatlarni, ya'ni ishlab chiqarishdan tashqari yoki tijorat (tashish, qadoqlash, saqlash, reklama qilish va hokazo) xarajatlarning ham amalga oshiriladilar.

Mahsulot (ish, xizmat) tannarxni tashkil qiluvchi xarajatlar iqtisodiy mazmunga ko'ra, quydagi elementlarga asosan guruxlarga taqsimlanadi:

- moddiy xarajatlar;
- asosiy fondlar amortizatsiyasi;
- mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;
- ijtimoiy ehtiyojlarga mo'ljallangan xarajatlar;
- boshqa xarajatlar;

Moddiy xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarning eng katta qismi bo'lib, umumiy xarajatlarning 60-80 foizini tashkil qilish mumkin. Moddiy xarajatlar o'z ichiga quydagilarni qamrab oladi:

- xomashyo va materiallar xarajatlari;
- texnologik maqsadlar va xo'jalik ehtiyojlari uchun sarflanuvchi yoqilg'i va energiya;
- xarid qiluvchi butlovchi qisimlar va yarim tayyor mahsulotlar;
- sotib olingan qadoqlash va o'rov materiallari xarajatlari;
- mashina va asbob-uskunalarini ta'mirlash uchun ehtiyot qisimlar;
- boshqa korxonalar va tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan ishlab chiqarish xizmatlari;

- xizmat davri bir yilgacha bo'lgan kichik qiymatli va tez eskiruvchi predmetning eskirishi yoki har bir instrument, investar, laboratoriya uskunalari va maxsus kiyim – bosh uchun eng kam oylik ish haqining 50 baravar miqdorigacha qiymati;

- tabiiy xomashyodan foydalanish bilan bog'liq soliq, yig'im va boshqa to'lovlar;

- ishlab chiqarishda bekor turib qolish va sifatsizlik (brak) tufayli yuzaga keladigan yo'qotishlar;

- tabiiy yo'qotishlar bilan bog'liq bo'lgan yoki aybdor shaxslar mavjud bo'lmagan holda yuzaga keladigan yo'qotishlar.

Amortizasiya ajratmalari miqdoriga teng bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirishi xarajatlarning yirik elementlaridan biri hisoblanadi. Bular qatoriga asosiy fondlarning tezlashgan amortizasiyasi va uning indeksasiyasini kiritish mumkin.

Mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar – korxonalarining asosiy ishlab chiqarish personalini mehnatga haq to'lashga sarflanadigan xarajatlar bo'lib, ishlab chiqarishdagi yuqori natijalar uchun mukofotlar, rag'batlantiruvchi va kompensasiya to'lovlari, jumladan, konunchilikda belgilangan me'yoriylar chegarasida narxlarning o'sishi va indeksasiya uchun to'lovlar, shuningdek, korxonada xodimlari shtatida bo'lmagan, lekin asosiy ishlab chiqarishda bind bo'lgan ishchilar uchun to'lanuvchi haqini o'z ichiga oladi.

Mazkur xarajatlar elementlari qatoriga quyidagilar kiritilgan:

- amalda bajarilgan ish uchun tarif stavkalari, lavozim maoshlari va shu kabilar asosida to'lanuvchi ish haqi;

- xodimlarga natural to'lov shaklida beriluvchi mahsulotlar qiymati;

- ishlab chiqarishdagi yuqori natijalar uchun beruvchi mukofot va boshqa to'lovlar;

- qonunchilikka asosan ba'zi tarmoqlardagi xodimlarga bepul beriluvchi kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-joy, kommunal xizmat va xokozalar qiymati;

- Har yillik mehnat va o'quv ta'tili uchun amalga oshiriluvchi to'lovlar;
- korxonalarni tashkil qilish, shtatlar qisqarishi tufayli ishdan bo'shatilgan xodimlarga to'lanuvchi mablag'lar.

Ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlar nobyudjet ijtimoiy fondlarga (nafaqa fondi, ijtimoiy sug'urta fonda, bandlik fonda va xokozo) ajratiluvchi mablag'larni anglatadi.

Mahsulot (ish, xizmat) tannarxidagi boshqa xarajatlar – qonunchilikda belgilangan tartibda maxsus nobyudjet fondlarga o'tkazuvchi to'lovlar va soliqlar, yo'l qo'yish mumkin bo'lgan miqdordagi chiqindilar uchun to'lovlar; korxonada mulkini majburiy sug'urtalash; rasionalizatorlik takliflari uchun mukofatlar; qonunchilikda belgilangan stavkalarda kreditlar bo'yicha to'lovlar; mahsulotni sertifikatlash uchun bajarilgan ishlarga haq to'lash; qonunchilikda belgilangan me'yorlar bo'yicha xizmat sarflariga haq to'lash; yog'inga qarshi kurash va qo'riqlash muassasalariga haq to'lash; kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, xodimlar tanlashni tashkil qilish, aloqa xizmati, hisoblash markazlari, banklar xizmatiga haq to'lash; asosiy ishlab chiqarish fondlarini ijaraga olganlik uchun haq to'lash; nomoddiy aktivlarning eskirish va hokozalar. Quydagi 1.1.-jadvalda korxonalarining hisobiga olmaydigan xarajatlari haqida ma'lumot.

**1.1.-jadval.**

**Korxonalarining hisobga olinmaydigan xarajatlari to'g'risida ma'lumot**  
**2011 yil (ming so'm)**

Nomlanishi	O'tgan yilning olti oyida	Shu yilning 6 oyida
Maosh va ajratmalar	82601	9196,2
Saqlash xarajatlari	496,0	600,0
Transport xarajatlari	4297,0	5000,0
Komunal xarajatlar	2350,0	2500,0
Qo'shimcha xom ashyo sotib olish	4879,0	5165,0
O'skuna va dastgohlarni ta'mirlash xarajati	8000,0	10000,0
Yo'l fondi solig'i	1638,0	1875,0
Maktabni rivojlantirish solig'i	1086,0	1250,0
Sotilgan mahsulotdan to'lanadigan soliq	7118,0	875,0
Jami xarajatlar	31747,1	35461,2

**Manba:** "Sino OAJ"ning yillik hisobotidan

Korxonada 6 oy mobaynida 9196,2 ming so'm maosh uchun, qo'shimcha xom – ashyo uchun esa 5105,0 ming so'm xarajat qilish ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari mahsulot va sport ishlarini rivojlantirishda 1250 ming so'm, yo'l fond iva boshqa to'lovlar uchun xarajatlar sarflagan.

Ishlab chiqarish korxonalarini faoliyati moddiy va mehnat xarakatlari bilan bog'liq. Xarajatlarning asosiy hissi mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarish jami xarakatlari mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil etadi va ishlab chiqarilgan mahsulot korxonaga qanchaga olganini aniqlash mumkin.

Ishlab chiqarish korxonalarini mahsulotlarni sotish bilan bog'liq xarajatlarni ham amalga oshirishdi. Bunday xarajatlar ishlab chiqarishdan tashqari yoki tijorat xarajatlari ham deyiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish)larini ishlab chiqish va va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi izom» ga muvofiq korxonalarining xarajatlari quyidagi guruxlarga bo'linadi:

- mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy imkoniyatidan olinadigan foydada hisobga olinadigan hamda davr xarajatlari kiritiladigan xarajatlar;
- korxonada umumxo'jalik faoliyatidan olinadigan foyda yoki zararni hisoblab chiqishda hisobga olinadigan korxonaning moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlar:

- favqulotda zararlar;

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritilgan xarajatlar.

Mahsulot (ish, xizmat)Larning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmunga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruxga ajratiladi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytariladiga chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);

- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lmagan mehnatga haq to'lash xarajatlari;

- ishlab chiqishga tegishli bo'lmagan ijtimoiy sug'urta ajratmalari;

- asosiy fondlar va ishlab chiqish ahamiyatiga ega bo'lmagan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

- ishlab chiqish ahamiyatiga ega bo'lmagan boshqa xarajatlar;

Mahsulot, (ish, xizmat) ishlab chiqarish xarajatlarining eng yirik elementi – moddiy xarajatlardir. Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish tannarxi tarkibida ularning hissasi 60-90 foizni tashkil etish mumkin.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlarga quydagilar tegishli bo'ladi:

- mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlar ko'rsatishda) zarur tarkibiy qisim hisoblangan chetdan sotib olinadigan xom ashyo va materiallar;

- normal texnologiya jarayonini ta'minlash va mahsulotni o'rash, mahsulot (ish, xizmat)lar yoki ishlab chiqarish ehtiyojlariga asrflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o'tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish uchun) materiallar, shuningdek asbob – uskunalarni tuzatish uchun ehtiyot qisimlar, instrumentlar, moslamalar, inventar, priborlar, laboratoriya asbob – uskunalari va asosiy fondlarga kirmaydigan boshqa mehnat vositalarining eskirishi, mahsus kiyim—bosh va boshqa arzon ashyolarning eskirishi;

- sotib olinadigan, kelgusida O`shbu korxonada montaj qilinadigan yoki qo'shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;

- tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek korxonaning ichki tarkibiy bulinmalari tomonidan bajariladigan faoiyatning asosiy turiga tegishli bo'lmagan ishlab chiqarish xususiyatlariga ega bo'lgan ishlar va xizmatlar;

- tabiiy xom ashyo (yer rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan yerni regultivatsiya qilish ishlariga haq to'lash), ildizi blan beriladigan daraxtga haq to'lash, sanoat korxonalarini tomonidan suv xo'jaligi tiziida belgilangan limintlar doirasida va

undan ortiq olinadigan suv uchun haq to'lash. Sanoatning xom ashyo tarmoqlari uchun yog'och taxta materiallaridan yoki foydali qazilmalardan (ruldan foydalanishga huquqlarning amortizasiya qilinadigan qiymati yoki atrof – muhitni tiklash xarajatlari;

- texnologik maqsadlarga, energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yoqilg'ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, korxonaning transporti tomonidan bajariladigan ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha transport ishlari;

- korxonaning texnologik, transporti va boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdagi xarid qilinadigan energiya;

- ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy yo'qotish normalari doirasida va ulardan ortiqcha yo'qotilishi, yaroqsizlanishi va kam chiqishi;

- korxonaning transport iva xodimlar tomonidan moddiy resurslarni yetkazish Bilan bog'li xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumlag kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga Kirishi kerak (mehnatga haq to'lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizasiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar).

Korxonalar tomonidan moddiy resurslarni yetkazib beruvchilardan olinadigan idishlar ham moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi.

Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan qaytariladigan chiqitlar qiymati hamda idish va o'rash joylari materiallari qiymati, ularning amalda satilishi, foydalanilishi yoki omborga kirim qilinishi narx bo'yicha chiqarilib tashlanadi.

«Moddiy xarajatlar» elementlari bo'yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, shu jumladan barter bitishuvlarida, qo'shimcha narx (ustama0dan, ta'minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to'lanadigan vositachilik taqdirlashlarida tovar birjalari qiymatlaridan, shu jumladan brokerli xizmatlardan, bojlar va yig'implardan, transportda tashishga haq to'lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va yetkazib berishga haq to'lashdan kelib chiqib shakllanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining yirik elementlariga asosan ishlab chiqarish fondlarining eskirishidir. Qaysikim, u amortizmsiya ajratmalari so'mmasiga tengdir. O'nga asosiy fondalarni tezlashtirilgan maortizasiyasi va uning indeksisiyasi ham kiradi.

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lmagan mehnatga haq to'lash xarajatlari – bu korxonalarining asosiy ishlab chiqarish xodimlarini mehnat haqi to'lash bilan bog'liq xarajatlardir. O'lrga quydagilar kiradi.

- korxonada mehnatga haq to'lash shakllari tizmiga muvofiq ishbay rassenkalar, tarif stavkalari va lavozimi mashlaridan kelib chiqib, amalda bajarilgan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ish uchun hisoblanadigan ish haqi, shu jumladan bajarilgan ishni hisobga olish bo'yicha dastlabki xo'jjatlardan nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi tUSDagi to'lovlar;

- kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalariga ukladlariga ustamalar;

- ish rejim iva mehnat sharoitlari bilan bog'liq bulgan komrensasiya to'sidagi to'lovlar (texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan vaqtda, ishdan tashqari vaqtda, dam olish va bayram kunlari ishlaganlik uchun tarif stavkalari va ukladlarga ustama va qo'shimcha haq, ko'p smenali rejimda ishlaganlik, kasbini bilan qo'shib olib borganlik va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirilgan uchun ustamalar, hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ish ro'yhati bo'yicha og'ir, zararli, alohida zararli mehnat va tabiy iqtisodiy sharoitlarda ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan uy sharoitlaridagi uzluksiz ish staji uchun ustamalar va h.k.);

- ishlanmagan vaqtda uchun to'lov (foydalanilmagan va qo'shimcha tatillar uchun kompensasiyalar, o'smirinlarning imtiyozli soatlik bolani ovqatlantirish uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash, har xil yig'imlar, favqulodda vaziyatlar bo'yicha yig'imlar va boshqalar uchun mehnatga haq to'lash va h.k.).

**Korxonada mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan material xizmatlari ( 2011 yil)**

<b>№</b>	<b>Nomlanishi</b>	<b>O`lchov birligi</b>	<b>Soni</b>	<b>Narxi</b>	<b>So'mma</b>
1	Karam	kg	858	60	51480
2	Shakar	kg	25,4	600	15240
3	Shisha idish 3 litir	Dona	360	240	86400
4	Qopqoqchalar	Dona	360	60	21600
5	O`ksus kislotasi	kg	7,7	100	770
6	Tuz	kg	18,2	70	1274
7	Ziravorlar	kg	1,3	6000	7800
8	Gaz	m/kt	190	41	7790
9	Elektr energiya	kv.soat	270	36,5	9855
10	Suv	m/kub	110	29	3190
11	Oqova suv ()	m/kub	110	29	3190
	Jami	-	-	-	208589
	Hammasi	X	X	X	298789

**Manba:** "Sino OAJ"ning yillik hisobotidan.

Mahsulot ishlab chiqarish to'g'risida sarf xarajatlarni taxlil qildigan bo'lsak tovar uchun 51480 so'm sarflagan bo'lsak, kalkulasiya to'lash sarf xarajatlar jami 208589 so'mni tashkil etadi bundan tashqari

- korxonalarda shtatida turmaydigan xodimlar mahsulotiga, ular tomonidan fuqarolik huquqiy tuzilgan shartnomalar bo'yicha ishlar bajarilganliga uchun haq to'lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob – kitob korxonaning o'zi tomonidan amalga oshirilsa, pudrat shartnomasi ham ushu jumlagi kiradi;

- belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayoniga qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash fondiga kiritilmagan to'lovlarning boshqa turlari.

Korxonalarining ishlab chiqarishga tegishli bo'lmagan ijtimoiy sug'urta ajratmalari – bu ijtimoiy fondlarga (Pensiya fondiga, Aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish fondiga, kasaba uyuushmalari Federasiyasi kengashiga) majburiy ajratmalardir.

Korxonalarining ishlab chiqarish quyidagi boshqa xarajatlarga quyidagilar tegishli.

- ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari (ishlab chiqarish xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, instrument, vositalari va boshqa mehnat vositalari va buyumlari Bilan ta'minlash xarajatlari; asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari; yoqilg'idan saqlash va qo'riqlashni hamda korxonalarining texnikaviy foydalanish Bilan nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni ta'minlash, ular faoliyatini nazorat qilish xarajatlari, ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli bo'lmagan asosiy vositalar joriy ijaraga olish bilan bog'liq xarajatlar; tekin ko'rsatiladigan kommunal xizmalar; ayrim tarmoqlar xodimlariga oziq – ovqatlar qiymati, korxonalar xodimlariga yeriladigan tekin uy – joy haqini to'lash xarajatlari; amaldagi qonun xo'jjatlariga muvafiq tekin beriladigan va shaxsiy foydalanishda qoplagan buyuurlar qiymati va boshqalar).

- ishlab chiqarish xodimlarini belgilangan ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan xizmat sarflariga yuborish bo'yicha normalar doirasida va ulardan ortiqcha xarajatlar;

- ishlab chiqarish va ishchilarning ishlab chiqarish aktivlarini majburiy sug'urta qilish xarajatlari;

- brak tufayli kelib chiqadigan yo'qatishlar;

- ishlab chiqarishning ichki sabablariga ko'ra bekor turishlar tufayli yo'qatishlar;

- kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli o'zgartirish va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish xarajatlari;

- mahsulot (xizmat)larning majburiy sertifikatlash qilish xarajatlari;

- ishlab chiqarish jarahotlari tufayli mehnat qobiliyati yo'qotishi munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida va qarorlarsiz to'lanadigan nafaqalar;

- umumiy foydalaniladigan yo'lovchilar transporti xizmat ko'rsatmaydigan yo'ngalishlarda xodimlarni ish joyiga olib bori shva olib kelish bilan bog'liq xarajatlar.

Bizga ma'lumki korxonada mahsulot xarajatlari va sarf xarajatlar to'g'risida ma'lumot 1.2. jadvalda o'z aksini topgan.

Davr xarajatlari deganda bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflar tushuniladi: boshqaruv xarajatlari, mahsulotni sotish xarajatlari va umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lmagan boshqa xarajatlar.

Korxonalarining sotish xarajatlariga quydagilar kiradi:

- tovarlarni temir yo'l, havo, avtomobil, dengiz, daryo transportida va otulovda tashish xarajatlari hamda transport vositalari bekor turib qolganligiga uchun to'lanadigan jarimalar;

- savdo va umumiy ovqatlarni korxonalarining ishlari xarajatlari (mehnatga haq to'lash xarajatlari, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar: savdo reklamasi xarajatlari; tovarlarni saqlash, ularga ishlov beri shva ularni navlarga ajratish xarajatlari, tashish, saqlash va sotish chog'ida tovarlarning norma doirasida va undan ortiqcha yo'qotilishi; o'rash-joylash materiallari xarajatlari; mol-mulkni majburiy sug'urta qilish xarajatlari va boshqalar);

- sotish bozorlarini o'rganish bo'yicha belgilangan normativlar doirasida va undan ortiqcha xarajatlar (marketinga, reklamaga sarflangan xarajatlar);

- yuqorida sanab o'tilmagan sotish bo'yicha boshqa xarajatlar.

Korxonalar boshqaruv xarajatlariga quydagilar kiradi:

- boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lmagan mehnatga haq to'lash xarajatlari;

- boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lmagan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;

- xizmat avtotransport va xizmat mikroavtobusini saqlash, yollash va ijaraga olish xarajatlari;

- korxonalar va uning tarkibiy bo'linmalarini tashkil etish va ularni boshqarish xarajatlari;

- boshqaruvning texnik vositalari, aloqa uzellari, signalizatsiya vositalari, hisoblash markazlarini va ishlab chiqarishga tegishli bo'lmagan boshqaruvning boshqa texnik vositalarni saqlash va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari;

- ijara, xizmatlar ko'rsatilganligi uchun aloqa uzellariga haq to'lash (ATS, uyali, yo'ldosh, peyjing aloqa):

- shaxarlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlari uchun belgilangan normativlar doirasida va ulardan ortiqroq to'lash;

- ma'muriy – boshqaruv ehtiyojlari uchun binolar va xonalar ijarasi uchun haq to'lash;

- ma'muriy faoliyatga ega bo'lmagan asosiy fondlarni saqlash va ularni tuzatish, shuningdek eskirish (amortizatsiya) xarajatlari;

- yuqori tashkilotlar va yuridik shaxs maqomiga ega birlashmalar, vazirliklar, idoralar, konsernlar va boshqa xarajatlarga ajratiladi;

- xodimlarni va ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan mulkni majburiy sug'urta qilish;

- boshqaruv xodimlarini xizmat safarlariga yuborish bo'yicha belgilangan normalar doirasida va undan ortiqcha xarajatlar;

- belgilangan normalar doirasida va undan ortiqcha miqdordagi xarajatlar;

- umumiy ovqatlanish korxonalari va boshqalarga binolarni tekin berish va kommunal xizmatlar qiymatiga haq to'lash xarajatlari;

- bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lmagan, tabiatni muhofaza qilish ahamiyatiga ega bo'lmagan jamg'armalarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq joriy xarajatlar, shu jumladan yo'l qo'yiladigan normalar doirasida va undan ortiqcha ifloslantiruvchi moddalarning atrof-muhitga chiqarilganligi (tashlanganligi) uchun to'lovlar.

Korxonalarining boshqa operatsiya xarajatlariga quydagilardan iborat:

- kadrlar tayyorlash va ulardan qayta tayyorlash xarajatlari (Yangi tashkil etilgan korxonalarda ishlash uchun normalar doirasida va ulardan ortiqcha kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash bundan mustasno);

- loyha va qurili-montaj ishlarda chala ishlarni bataraf etish xarajatlarni qoplash, shuningdek obyekt qoshidagi omborgacha transportda tashish chog'idagi shkastlanishlar va buzilishlar, korroziyaga qarshi himoya nuqsonlari tufayli kelib chiqqan taftish xarajatlari (asbob-uskunalarini qismlarga ajratish) va shunga o'xshash boshqa xarajatlar yetkazib beruvchi va ishlarni bajarish shartlarini buzga yuridik shaxslar hisobiga mazkur xarajatlar chala ishlar, shikastlanish yoki zarar ko'rish uchun javobgar bo'lmagan yetkazib beruvchi yoki boshqa korxonalar hisobiga undirilishi mumkin bo'lmagan darajada amalga oshiriladi:

- maslaxat va axborot xizmatlariga haq to'lash, shu jumladan korxonalar mulkdorlaridan birining tashabbusi bo'yicha o'tkazilgan auditorlik xizmatlarga haq to'lash;

- o'zining xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlari va xo'jaliklarni saqlashdan ko'riladigan zarar;

- salomatlikni muxofaza qilish va xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashuvi bilan bog'liq bo'lmagan dam olishlarni tashkil etuvchi tadbirlar;

- korxonalar tomonida mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan ishlar va xizmatlarni (shahar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam berish shva boshqa xil ishlar) bajarilish xarajatlari;

- kompensatsiya va rag'batlantirish to'g'risida to'lovlar (vaqtincha mehnat dehqonini yo'qotgan taqdirda qonun xo'ojatlari bilan belgilangan, haqiqiy ish haqi miqdoriga qo'shimcha haq va boshqalar).

- ish haqini hisoblashda hisobga olinmaydigan to'lovlar va xarajatlar (qanunchilikka muvofiq bolani ikki yoshga to'lgungacha parvarish qilish bo'yicha har oylik nafaqani to'lash bo'yicha xarajatlar; pensiyaga ustamalar; pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga bir yo'a to'lanadigan nafaqalar; xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam);

- sog'liqni saqlash obyektlari, qariyalar va nogironlar uylari, bolalarni maktabgacha tarbiya muassasalari, sog'lomlashtirish lagerlari, madaniyat va sport obyektlari, xalq ta'limi muassasalari, shuningdek frnda obyektlari ta'minotiga (shu jumladan barcha turdagi fondalr ishlarini o'tkazishga amortizasiyalari va boshqalarni ham qo'shga holda) joylardagi davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilangan normativlar doirasidagi va ulardan ajratilgan xarajatlar;

- vaqtincha to'xtatib qo'yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va ulardan tashqari;

- bank va dipozitariy xizmatlariga to'lovlar;

- ekologiya, sog'lomlashtirish va boshqa xayriya jamg'armalariga, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, madaniy tarbiya va sport korxonalari, muassasalar va otlarga badallar;

- byudjektga majburiy to'lovlar, soliqlar, yig'implar, amaldagi soliqqa muvofiq to'lanadigan va korxonalariga qo'yadigan maxsus byudjetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalar;

- zararlar, jarimalar, peniyalar (bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari bo'yicha yo'qotishlar, moddiy boyliklarning yo'qotilishi normalari doirasidagi va normalardan ko'proq, ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lmagan yo'qotishlar kamamadlar; sud xarajatlari; to'lanishi shabkali qarzlar bo'yicha ajratmalar va boshqalar);

- boshqa operatsiya xarajatlari.

## **1.2 Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va samaradorligini oshirish uslublari**

Ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirishning rivojlanish yo'nalishlari uslublariga ilm-fan taraqqiyoti bevosita ta'sir qiladi. Chunki fan-texnika taraqqiyoti uslublarni uzluksiz takomillashtirish, ularni qo'llash sifati va samaradorligini oshirishga olib keladi.

Ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish faoliyatining vositasi sifatida ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish uslublari ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirishning subyektiv tomonini o'zida gavdalantiradi. Bundan ular hohlagan vaqtda, asossiz tanlanishi mumkin degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Ishlab chiqarish korxonasida uslublarning tarkibi va mazmuni ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish qonuniyatlarini o'zida gavdalantirgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni harakat natijalaridan hosil topadi.

Shunday qilib ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish uslublari qo'yilgan maqsadga erishish uchun ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish obyektiga ta'sir o'tkazish ma'nosini anglatadi. Ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish uslublari o'zini mazmuni jihatidan iqtisodiy, ma'muriy-tashkiliy, ijtimoiy-psixologik uslublardan tashkil topadi. Ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish uslublari tizimida iqtisodiy uslublar markaziy o'rin egallaydi.<sup>1</sup>

Ishlab chiqarish korxonasida iqtisodiy uslub iqtisodiy mexanizmlar orqali ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish obyektiga ta'sir ko'rsatish ma'nosini anglatadi. Ishlab chiqarish korxonasida bunday holda korxonaning ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish organi boshqariladigan obyektga ish haki, mukofotlash, rag'batlantirishning turli shakllari, imtiyozlar, chegaralashni yumshatish, defisit resurslar bilan ta'minlash, iqtisodiy erkinlikni kuchaytirish kabi iqtisodiy mexanizmlardan foydalanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, iqtisodiy istak nafaqat ijobiy rag'batlantiruvchi omilga tayanadi, balki soliqlar, to'lovlar, daromaddan ushlab qolish va hatto jarima (sanksiyalari)ga ham tayanadi. Iqtisodiy uslublarning harakati sharoitida pastki bo'g'inlarga markazlashgan ta'sir ko'rsatish susayadi. Iqtisodiyotning pastki bo'g'inlari mustaqil ravishda qarorlar qabul qilishi uchun katta huquq va imkoniyatlarga ega bo'ladi. Ishlab chiqarish korxonasi va xo'jaliklarning o'z-o'zini ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirishga o'tishi amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish korxonasida ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirishni iqtisodiy

---

<sup>1</sup> Upravlenie organizatsiy. Porshneva A.G. M., «INFRA-M», 2000.

uslublarining hozirgi paytdagi o'zgarish omillaridan eng asosiysi ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirishni tik chiziqli shaklidan gorizonta shakliga o'tish hisoblanadi.

Bunda ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish obyektiga ta'sir nafaqat yuqori ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish organlari tomonidan, balki ishlab chiqarish korxonasi bilan bog'langan mijozlar, iste'molchilar tomonidan amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish korxonasida bunday ta'sir qilish uslublari o'z ifodasini o'zaro majburiyatlar, bitimlar va shartnomalarda topadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy uslublarning qo'llanilishi o'zining ijobiy samaralarini beradi. Tashkiliy-ma'muriy uslublar iqtisodiy uslublardan farq qilib, ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish obyektiga, ya'ni mehnat jamoalari va alohida xodimlarga bevosita buyruq farmoyish asosida ta'sir o'tkazishga asoslanadi.

Shuning uchun ham ishlab chiqarish korxonasida ushbu uslubni ko'p hollarda ko'rsatma tariqasidagi yoki buyruqga oid uslub deb ataydilar. Bunday ko'rsatma va buyruqlar pastki bo'g'inlar tomonidan majburan bajariladi.

Ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirishni bu uslubning mantiqi - "Boshliqning buyrug'iga bo'ysunadigan xodimlar uchun bajarilish qonuni" degan mazmunni anglatadi. O'shbu ma'muriy uslub asosan bozor iqtisodiyotiga xos bo'lmagan markazlashgan tamoyillar tizimiga xosdir.

Tashkiliy-ma'muriy uslub o'zining mazmuniga ko'ra ikki turga bo'linadi: tashkiliy va ma'muriy ta'sir ko'rsatish. Ishlab chiqarish korxonalarida tashkiliy ta'sir ko'rsatish birinchidan, xo'jalik ishlab chiqarish texnologiyasi, investisiya va marketing faoliyatini takomillashtirishni, tashkiliy va texnologik me'yorlar va nizomlarni ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Ikkinchidan, tashkiliy ta'sir ko'rsatish, ishlab chiqarish korxonalarida mehnat sharoitlarini yaxshilash, ayrim mehnat turlarini bajarish uslublarini aniqlaydi.<sup>2</sup>

---

<sup>2</sup> Il'enkova S.D. Proizvodstvennyy menedjment. Uchebnik. YuNITI, Moskva, 2001.

O`chinchidan, ishlab chiqarish korxonasida tashkiliy ta'sir ko'rsatish texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish, kompyuter texnologiyasidan foydalanish, berkitilgan vositalardan unumli foydalanishni ta'minlaydi.

Qayerda va qaysi vaqtda korxonalarda tashkiliy jihatdan o'zgarishlar sodir bo'lib qolsa (bu jarayonda doimo rivojlanish va takomillashtirish tendensiyasi mavjud) o'sha yerda tashkiliy ta'sir ko'rsatishga amal qilish zaruriyati tug'iladi. Ishlab chiqarish korxonasida tashkiliy ta'sir ko'rsatish o'z samarasini faqat uni ma'muriy ta'sir bilan to'ldirilgandagina beradi. Chunki, har qanday ishlab chiqarish korxonasining tashkiliy tuzilmasi ichida o'zining turli xizmatga oid sifatlari, xususiyatlari, dunyoqarashi va hatto ba'zi vaqtda qo'yilgan umumiy vazifani turlicha tushunishi bilan bir-birovidan farq qiladigan insonlar harakat qiladi.

Ishlab chiqarish korxonasida bunday sharoitlarda bo'g'inlar o'rtasidagi tashkiliy aloqalarni saqlab turish uchun korxonalariga ma'muriy ta'sir ko'rsatish zarur bo'lib koladi.

Ma'muriy ta'sir ko'rsatish amaliyotda buyruq farmoyish va ko'rsatma shaklida namoyon bo'ladi. Buyruq - bu ma'muriy-ijrochi faoliyatini tartibga solib turuvchi ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish faoliyati hisoblanadi. Ishlab chiqarish korxonasida bajarilishi muqarrar bo'lgan buyruqlarni faqat ishlab chiqarish korxonalar rahbari beradi. Buyruqlarni ishlab chiqish jarayonida unga kiritilgan masalalarni chuqur tahlil qilish va shu soha bo'yicha bilimdon mutaxassislar maslahatini inobatta olishga e'tibor berilishi lozim.<sup>3</sup>

Ishlab chiqarish korxonasida buyruqlardan farqli farmoyishlarni rahbarlardan tashqari ularning muovinlari va o'zining vakolat doirasida funksional bo'lim boshliqlari berishi mumkin. Farmoyishda ham xuddi buyruqdagidek masalalar aniq va tushunarli yoritilishi, ijrochilar, ijro sanasi va nazorat shakllari ko'rsatilishi lozim va farmoyishlarda uni bajarilishining aniq muddati ko'rsatiladi.

---

<sup>3</sup> G'ulomov S.S. «Koxona iqtisodiyoti». – Toshkent 2002y.- 76 b.

Ma'muriy ta'sir ko'rsatishning amalga oshirish vositasi ko'rsatma hisoblanadi. Odatda, ular og'zaki shaklda beriladi. O'nda qo'yilgan vazifalarning bajarish muddati aniq ko'rsatiladi. Ishlab chiqarish korxonasida ma'muriy ta'sir ko'rsatish organlarining qo'ygan vazifalarini amaga oshirish uchun uzluksiz nazorat qilishni yo'lga qo'yish kerak.

Har bir buyruqni bajarilish nazoratini shaxsan rahbar yoki uning vakolati bilan uning vakili amalga oshiradi. Ayniksa, rahbarning shaxsiy nazorati haddan tashqari muhim hisoblanadi. Chunki, bu o'z vaqtida buyruqni bajarish bo'yicha paydo bo'lgan chetlanishlarni payqab, uning oldini olish imkoniyatini beradi. Ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish uslublari ichida ijtimoiy-psixologik uslublar muhim o'rin egallaydi. Ijtimoiy-psixologik uslublar bu mehnat jamoalari va ayrim xodimlarga turli psixologik mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatish orqali ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirishni amalga oshirishdir.

Ishlab chiqarish korxonasida har bir insonda mehnatga, mulkka, pul, boylikka, iqtisodiy munosabatlarga nisbatan qarashlar tizimi shakllanib va tarbiyalanib boradi. Ishlab chiqarish korxonasida bu holat ham iqtisodiyotda va maishiy sharoitda o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy-psixologik uslublarning asosiy vazifasi insonlarni psixologiyasidir. Vijdoni va odob-axloqiga ta'sir ko'rsatish orqali ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish subyekti qo'ygan maqsadga erishishni ta'minlashdan iborat.

Ishlab chiqarish korxonasida odamlarni biron-bir ishni bajarishga majbur qilmaslik kerak. O'larni shu narsani bajarish zarur ekanligiga ishontirish kerak.

Ijtimoiy-psixologik uslublarning samaradorligi va amaliy ta'siri avloddan-avlodga o'tib keladigan insonning vujudidagi tarbiyaga bog'liq bo'ladi. Bunga bir qator mamlakatlarda shakllangan an'analarni misol keltirsak bo'ladi. Masalan, Yaponiyada mehnatga bo'lgan sevgi va hurmat, o'z ishiga va firmasiga sodiqlik go'dakligidan boshlab tarbiyalanadi. Agar firmada ish yomon borayotgan bo'lsa, yapon ishchisi mehnat ta'tilidan ham voz kechadi. Shunday qilib, ijtimoiy-psixologik uslublarning ikki guruhga bo'lish mumkin.

1. Ijtimoiy ta'sir ko'rsatish uslublari.

## 2. Psixologik ta'sir ko'rsatish uslublari.

Bularni har birini alohida ko'rib o'tamiz.

Ijtimoiy ta'sir ko'rsatish uslublari korxonalarda juda ko'p jamoani ijtimoiy rivojlanish masalalarini hal qilish vositasi sifatida ishlatiladi.

Ishlab chiqarish korxonasida ushbu uslub orqali mehnat jamoalarining ijtimoiy tuzilmasi va xususiyatlari (jamoani ijtimoiy va kvalifikasion tuzilishi, xodimlar va ishchi-xizmatchilarning madaniy-texnik darajasi, mehnat sharoiti, mehnatni rag'batlantirishni tashkil qilish, ma'naviy va ma'rifiy ishlarni qo'yilishi va hokazo) o'rganiladi.<sup>4</sup>

O'larni amaliyotda qo'llash natijasida jamoa va uni a'zolarining ijtimoiy faolligi oshadi, tarbiya jarayoni yaxshilanadi. Amaliyotda ijtimoiy ta'sir ko'rsatish uslublari bilan birga mehnat jamoalari va uni a'zolarini ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirishni psixologik uslublari ham keng ishlatiladi. Ishlab chiqarish korxonasida ularning asosiy vazifasi mehnat jarayoni bilan band bo'lgan insonlarning psixikasi va kayfiyatiga ta'sir ko'rsatishdan iborat. O'shbu uslublarning yo'nalishi ishlab chiqarish korxonalarida xayrihohlik do'stlik munosabatlarini, mehnatga qiziqishning oshishi uchun samarali tizimini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Ishlab chiqarish korxonasida yuqorida ko'rib chiqqan ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirishning ikki uslublari bir-birovi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, birgalikda xo'jalik faoliyatining barcha ishlab chiqarishini samaradorlikni oshirish funksiyalariga amal qilishni ta'minlaydi.

Shuning uchun ham amaliyotda ularni birontasini rolini pastga urish katta salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ishlab chiqarish korxonada taraqqiyotning hamma bosqichlarida iqtisodiyotning asosiy va birlamchi bo'g'ini hisoblanadi.

Albatta, konkret korxonani ishlab chiqarishini samaradorlikni oshirish fanlarining tuzilmasi, uni ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish shakli va uslublari uning masshtabi va ixtisosligiga bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarish

---

<sup>4</sup> I.A. Blank «Osnovi finansovogo menedjmenta», Kiyev: Nika-Sentr, 1999.

korxonasida umumiy qilib aytganda, iqtisodiyotimizda mavjud bo'lgan turli mulk shakllariga asoslangan ishlab chiqarish korxonalari bir-birovi bilan o'xshashligi va farqlari mavjud. O'xshashligi shundaki hap qanday ishlab chiqarish korxonasi mahsulot, tovar, xizmatlar ishlab chiqaradi, ma'lum faoliyatni amalga oshiradi.<sup>5</sup>

Aynan ilab chiqarish korxonasida uning bosh maqsadi va vazifasi o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham ularni shakl va turlaridan qatg'iy nazar, korxonalarni samaradorlikni oshirish asosida texnologik jarayonlarni ishlab chiqishni samaradorlikni oshirish umumiy o'xshashligidan tashqari iqtisodiyotning turli sohalaridagi ishlab chiqarish korxonalarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu birinchi navbatda turli sohadagi ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish va ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirishni tashkil qilishdagi o'ziga xos sharoitlardir. Masalan, ba'zi ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish jarayonini uzoq muddatga cho'zilishi va jarayonlarning murakkabligi, ularni tayyorlash va xizmat qilish operatsiyalarining o'ziga xos xususiyati va hokazolar.

Ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi farq xuddi shunday ishlab chiqarishni tayyorlash jarayonining bosqichlarida ham o'z ifodasini topadi. Masalan, yangi mahsulotlarni loyihalash va uskunalash, loyihalash bilan bog'liq bo'lgan hisoblarni amalga oshirish, me'yoriy hisoblarni amalga oshirish va hokazolar. Ishlab chiqarish korxonani ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish asosida chiziqli va funksional tamoyillar yotadi. Shuni qayd qilish joizki, har qanday ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish tizimida chiziqli tamoyil yotadi.

Ishlab chiqarish korxonasida tizimning ichida bo'g'in va pog'onalarni bir-biridan farq qilish lozim. Bu alohida funksiyalarni bajaruvchi mustaqil bo'linmadir. Ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish bo'g'ini tushunchasiga shuningdek bir necha tashkiliy tuzilmalar faoliyatini rahbarligini amalga oshiruvchi rahbarlarni ko'rsatish mumkin. Bularga bosh muxandis, bosh texnolog,

---

<sup>5</sup> Zaynutdinov Sh.N., Murakayev I. «Osnovi menedjmenta» T. «Ukituvchi»-1996.-177.

smena boshliqlari va hokozolar kiradi. Ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish pog'onasi bu bo'g'inlarning yig'indisi hisoblanadi.<sup>6</sup>

O' ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish iyerarxiasini belgilaydi (quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo'ysunishi). Ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish tizimidagi chiziqli bo'limlar buyrug'ini bajarish unga bo'ysunadigan hamma bo'limlar uchun shart hisoblanadi. Chiziqli ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish berilgan farmoyish va vazifalarni bajarilishida anglashmovchilik kelib chiqishiga imkon bermaydi.

Chunki ushbu vazifalar bir rahbar tomonidan beriladi. Shu bilan rahbarlik birligi ta'minlanadi, rahbarlarning o'zlariga berkitilgan bo'limlar uchun mas'uliyati oshadi. Ishlab chiqarish korxonasida chiziqli ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish korxonaning tashkiliy tuzilmasini barpo qilish asosini tashkil qilib, butun ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish mexanizmining samarali harakatini ta'minlaydi. Shuning uchun ham chiziqli ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirishni rasional tashkil qilish bir qator talablarga javob berishi lozim. Ishlab chiqarish korxonasida birinchidan, bo'ysunadigan pog'onalarning soni qancha ko'p bo'lsa, ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish shuncha oson bo'ladi. Iloji boricha kam odamlar samaradorlikni oshirish jarayoniga aralashadi. Bu esa samaradorlikni oshirish obyektini, holatini, barqarorligini ta'minlash imkoniyatini tug'diradi. Ishlab chiqarish korxonasida chiziqli ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirishni samarali harakat qilishi sharoitlaridan biri buyruqlarni pastki bo'g'inlarga uni bevosita rahbari tomonidan berilishi hisoblanadi.<sup>7</sup>

Masalan, zavod direktori sex boshlig'i xabarisiz, ya'ni bevosita sex ustasiga buyruq berilishi noto'g'ri hisoblanadi. Rahbar va boshliqlar sonining ko'pligi, odatda, mas'uliyatsizlikni keltirib chiqaradi va ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish operativligini susaytiradi.

Ishlab chiqarish korxonasida amaliyotda agar bunday holatlar uchrab qolsa, demak chiziqli samaradorlikni oshirish tamoyili buzilgan hisoblanadi.

---

<sup>6</sup> Sharifxo'jayev «Menejment». Darslik, - Toshkent, 2005.

7. Gellovey L. Operatsionnyy menedjment.-SPb. :Piter, 2002.-320 s.

Chiziqli samaradorlikni oshirish tizimi rahbarlar va bo'ysunadigan shaxslarning rasional nisbatini hisobga olgan holda tuzilishi lozim.

Mamlakatimizda ishlab chiqarish korxonalari boshqaruvining puxta yo'lga qo'yilishi muhim aqamiyat kasb etadi. Bunda eng avvalo yosh kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish muammosi, me'yoriy-huquqiy asosni takomillashtirish, ishlab chiqarish korxonalarini iqtisodiy va huquqiy uskunalar bilan ta'minlash, chet el moliyaviy investisiyalarini jalb etish, ichki xo'jalik tizimini rivojlantirish hamda ishlab chiqarish texnologik jarayonlarni takomillashtirish kabi muammolar turadi. Ishlab chiqarish sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida nihoyatda muhim vazifani bajarmoqda. Shuning uchun hozirgi kunda ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirishga katta sarmoyalarni jalb etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.


### **1.3. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda korxonalarining o'rni va ahamiyati**

Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, 2011 yilda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik korxonalarini jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

Kichik korxonalar – kichik biznes subyektlarining bir turi bo'lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko'ra sanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika sanoati va boshqalarda) 50 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik korxonalar hisoblanadi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2009 yilda 50 foizdan oshdi. Holbuki, 2000 yilda bu ko'rsatkich 31 foizni tashkil etgan edi. Bunday natija birinchi navbatda kichik

biznes va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlanayotgani samarasidir (1.1-rasm).



Manba: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

### **1.1-rasm. O'zbekistonda 2001-2012 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIM dagi ulushi, (foizda)**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining kengayishi iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlari ishlab chiqarish hajmidagi salmog'ining oshishi orqali ham namoyon bo'ldi. Xususan, mazkur sohaning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2008 yildagi 13,9 foizdan 2009 yilda 16,9 foizga, qishloq xo'jaligida tegishli ravishda 97,8 foizdan 97,9 foizga, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida – 23,1 foizdan 23,7 foizga, pullik xizmat ko'rsatish hajmida – 48,5 foizdan 48,7 foizga, eksport hajmida – 12,4 foizdan 14,6 foizga qadar oshdi (1.1-jadval).


Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bu qadar jadal rivojlanishida eng avvalo mazkur soha uchun belgilanayotgan soliq imtiyozlari yetarli darajadagi rag'batlantiruvchi rol o'ynayotganligi hisoblanadi. Jumladan, bu borada 2009 yilda kichik sanoat korxonalarini uchun yagona soliq to'lovi 8 foizdan 7 foizga pasaytirildi, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun esa qayd etilgan soliq miqdori o'rtacha 1,3 barobar kamaytirildi (1.2-rasm).

## 1.1-jadval.

### O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot asosiy tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmidagi ulushi, foizda (1 yanvar xolatiga)

Ko'rsatkichlar	2010 yil	2012 yil
Sanoat	13,9	16,9
Qishloq xo'jaligi	97,8	97,9
Qurilish	48,3	41,6
Savdo	48,1	46,5
Asosiy kapitalga investisiya	23,1	23,7
Pullik xizmat	48,5	48,7
Eksport	12,4	14,6
Import	35,7	42,5

Manba: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)



Manba: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

### 1.2-rasm. O'zbekistonda 1996-2012 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun belgilangan soliq stavkalari (foizda)

Rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, 1996-2012 yillar mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun belgilangan soliq stavkalari 38 foizdan 6

foizgacha, ya'ni 5,4 marta qisqargan. 2012 yildan esa 5 foizli stavka rejalashtirilgan.

2011 yilda ham tadbirkorlarning o'z ishini tashkil etish bilan bog'liq sarf-xarajatlarini qisqartirish ishlari davom ettirildi. Masalan:

- arxitektura-rejalashtirish topshiriq to'plamlarini olish qiymati – 4 barobar;
- loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish – 2,5 barobar;
- kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish qiymati – 2 barobarga pasaytirildi.

## 1.2-jadval.

### Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda ruxsat berish jarayonlarini qisqartirilishi va to'lovlarning optimallashtirilishi

Ruxsat berish bilan bog'liq jarayonlar turlari	To'lov miqdori				To'lov miqdorining qisqarishi, foizda
	Avval amalda bo'lgan		Yangi kiritilgan		
	eng kam ish haqi miqdori bo'yicha	so'mda*	eng kam ish haqi miqdori bo'yicha	so'mda*	
Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish	5	140200	2	56080	- 60
Bankda hisob raqamini ochish	1	28040	0,5	14020	- 50
Arxitektura-rejalashtirish topshiriqlarini ishlab chiqish	40	1120000	10	280400	- 75
Yer uchastkasini rasmiylashtirish	-	130000	-	58000	- 56
Ekologik ekspertiza	25	701400	1	28040	- 96
Loyiha-smeta hujjatlarini ekspertiza qilish	10	280400	3	84120	- 70
Qurilish davomida nazorat-ijro syemkalari o'tkazish	5	140200	3	84120	- 40
Normativlar loyihalarining ekologik ekspertizasini o'tkazish	75	2103000	1	28040	- 98,7
Gigiyenik sertifikatlar olish	10	280 400	3	84 120	- 70
<b>Jami to'lovlar qiymati (lisenziya va ruxsatnomalarsiz)</b>	-	<b>5037660</b>	-	<b>830960</b>	- 83,5

\* Izoh: eng kam ish haqi miqdori to'lovlarni qisqartirishga oid me'yoriy hujjatlar qabul qilingan davrga tatbiqan olingan.

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishdagi ruxsat berish jarayonlarining qisqartirilishi va to'lovlarning optimallashtirilishi bilan bog'liq tadbirlar natijalarini quyidagi jadval orqali yaqqolroq ko'rish mumkin (1.2-jadval).

Jadvaldan ko'rinadiki, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda ruxsat berish jarayonlarini qisqartirish va to'lovlarni optimallashtirish tadbirlari ahamiyatli darajada amalga oshirilgan. Masalan, normativlar loyihalarining ekologik ekspertizasini o'tkazish bo'yicha to'lov miqdori 75 marta, ekologik ekspertiza qiymati 25 marta kamaytirilgan. Buning natijasida har bitta tadbirkorlik subyekti uchun o'z faoliyatini tashkil etishda o'rtacha 4207 ming so'm miqdorgacha mablag'larni tejash imkoniyati paydo bo'ldi.

2012 yil davomida inventarizasiya natijasida aniqlangan qariyb 2 mingta bo'sh bino kichik tadbirkorlik subyektlariga ijaraga berildi. Bunda binolarni ijaraga berish tariflari tadbirkorlik subyektlarining qayerda joylashgani va ularning faoliyat turiga qarab 3 barobardan 10 barobarga qadar kamaytirildi. Shuningdek, o'tgan davr mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun quyidagi imtiyoz va qulayliklar yaratildi:

- mahsulotlarning gigiyenik sertifikatini amal qilish muddati ilgarigi 3 yildan endilikda cheklanmagan muddatga o'tkazildi;

- fitosanitariya xulosalarini berish muddatlari qisqartirildi;

- elektr va issiqlik tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni bajarish muddatlari 1 oydan 3 kungacha qisqartirildi;

- binolarni turar joydan noturar joy toifasiga o'tkazish jarayoni soddalashtirildi;


- davlat mulkidagi bo'sh binolar ijara haqlari 10 va undan ko'p barobargacha tushirilishi natijasida ularning 81 foizi (aniqlangan 3650 tadan 2939 tasi) tadbirkorlik subyektlariga ijaraga berildi;

- tashqi reklamani joylashtirish tariflari o'rtacha 20 dan 30 foizgacha pasaytirildi hamda ayrim hududlarning qishloq joylarida haq olish bekor qilindi. Buning natijasida tashqi reklama beruvchi tadbirkorlarning ulushi 34 foizgacha oshdi;

- tashqi reklamani joylashtirish qiymati Toshkent, Farg'ona, Jizzax, Namangan va Navoiy viloyatlarining qishloq joylari uchun 50 foizgacha pasaytirildi;

- elektr energiyasini oldi-sotti shartnomasida belgilangan hajmga nisbatan kam sarflanishi uchun jarimalar bekor qilindi va ortiqcha sarflash bo'yicha jarimalar 50 foizga qisqartirildi.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash tadbirlari kuchaytirildi. Xususan, 2010 yil davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 1 trln. 850 mlrd. so'mdan ortiq kreditlar ajratildi (1.3-rasm).



Manba: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

### 1.3-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan kreditlar miqdori

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga yo'naltirilayotgan kreditlar miqdori 2001-2012 yillar mobaynida deyarli 11 barobar o'sgan.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishida unga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma muassasalarining tashkil etilishi va xizmat sifati darajasining yaxshilanib borishi sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda (1.3.-jadval).

Jadvaldan ko'rinadiki, bugungi kunda mamlakatimiz kichik biznes sohasiga o'ndan ortiq turdagi 8 mingga yaqin infratuzilma muassasalari xizmat ko'rsatib, faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib bermoqda.

### 1.3-jadval.

#### O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi mavjud infratuzilma obyektlari (2012 yil 1 yanvar holatiga, birlikda)

Infratuzilma obyekti nomi	Soni
Tijorat banklari filiallari	1042
Minibanklar	2318
Axborot-maslahat markazlari	262
Konsalting markazlari	327
Auditor firmalari	113
O'quv markazlari	917
Baholash kompaniyalari	138
Tovar xom ashyo birjasining savdo maydonchalari	204
Mikrokredit tashkilotlari	32
Kredit uyushmalari	103
Biznes-inkubatorlar	34
Sug'urta tashkilotlari	32
Brokerlik idoralari	1424

Manba: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

Buning natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo'lib bormoqda. Jumladan, mamlakatimizda 2011 yilda yaratilgan jami 940,5 mingdan ortiq yangi ish o'rinlarining 391,8 mingtasi (41,7 foizi) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga to'g'ri kelmoqda. Bu o'tgan yildagiga nisbatan 4,7 foizga ko'proq demakdir. Jami yangi ish o'rinlarining deyarli 21 foizi turli shakllardagi uy mehnatini yo'lga qo'yish, 7,5 foizi yangi obyektlarni ishga tushirish, mavjud

ishlab chiqarishlarni qayta qurish va kengaytirish, deyarli 30 foizi ish joylarini ko'paytirishning qo'shimcha chora-tadbirlarini amalga oshirish hisobiga tashkil etilgan. Buning natijasida, kichik tadbirkorlikda band bo'lganlar sonining jami iqtisodiyotdagi band bo'lganlar soniga nisbatan ulushi 2009 yilda 73,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilga kelib 74,2 foizga yetdi.

Bundan ko'rinadiki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatida amal qilmoqda.

#### **1.4. Korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda xorijiy davlatlar tajribasini joriy etish va u bilan bog'liq muammolar**

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotini muvafaqqiyatli rivojlanishi va takomillashuvining hal qiluvchi sharoitlaridan biri samaradorlikni oshirish fan-texnika taraqqiyoti bilan olib borilayotgan ishlarni doimiy sur'atda yaxshilashdan iborat.

Amaliyot shuni ko'rsatdiki, bozor munosabatlarining imkoniyatlari va ustunligidan samarali foydalanish aynan ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish kadrlarning va birinchi navbatda rahbarlarning aqli, ishbilarmonligi, yangi sharoitda ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish maqsadlari, tamoyillari va uslublarini qay darajada qo'llay bilish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

O'z vaqtida ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish har qanday davlatni rivojlanishi uchun uchta asosiy omilga amal qilishni alohida ta'kidlab o'tish joiz hisoblanadi. Bularga:

- Insonlar;
- Moliya siyosati;
- Texnika va texnologiya kiradi<sup>8</sup>.

---

<sup>8</sup> Vixanskiy O. S. Naumov A.I. «Menedjment». M: 1994.

Birinchi o'ringa insonlarning qo'yilishi bejiz emas. Yapon, Amerika va Yevropadagi ko'zga ko'ringan menejerlarning biznes sohasida erishgan yutuqlarini ana shu omillarga tayanib, ish ko'rganlari bilan bog'lash mumkin.

Hozirgi sharoitda ishlab chiqarish korxonasi rahbarlari rolining oshib borishi bir qator omillar bilan belgilanadi. Bularga ishlab chiqarish korxonalaridagi sifatli o'zgarishlar, ishlab chiqarish hajmining oshishi, ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashishi, davrga xos bo'lgan yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishchi-xodimlar mafkurasining o'zgarishi, ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirishni shakl va uslublarining o'zgarishi, hamma sohada demokratlashtirishni amalga oshirilishi, davr talabi bilan rahbarlarning alohida o'rin egallashi va hokazolarni ko'rsatish mumkin<sup>9</sup>.

Yuqoridagi texnikadan keng ko'lamda foydalanish samaradorlikni oshirish xodimlarini hammaga ma'lum bo'lgan, noijodiy vazifalardan ozod qilib, asosiy diqqat e'tiborni eng asosiy masalalarga qaratishni talab qiladi.

Shunday qilib, iqtisodiyot murakkablashib borgan sari murakkablashib boraveradi. Rahbar ijtimoiy, professional va shaxs nuqtai nazardan olib tekshirilishi lozim.

Shuni aytish joizki, har qanday xo'jalik rahbari eng oldin bozor iqtisodiyoti sharoitida turli mulk shakllariga asoslangan mavjud iqtisodiy munosabatlar ustunligini amalga oshirish yo'llarini o'ylab topishi kerak. Bu bilan u yuqori darajadagi mas'ul ijtimoiy-iqtisodiy vazifani bajargan bo'ladi. O'shbu vazifani bajarish uchun unda hamma imkoniyatlar mavjud. Eng asosiysi, unga kerak bo'lgan va huquqiy xujjatlar bilan mustahkamlangan vakolat berilgan.

Avvalo, bizning respublikamizda bajarilgan vazifalarning sifati va samaradorligi so'z bilan emas uni ishi bilan baholanishi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Eng asosiy iqtisodiy vazifasini muvaffaqiyatli bajarishi uchun yuqori darajadagi professional bo'lishi va uni amaliyotga joriy qila olishi lozim va birinchi navbatda,

---

<sup>9</sup> M. Sharifxo'jayev «Menejment». Darslik Toshkent 2005.

mehnat jamoasining tashabbusini davlat tomonidan belgilangan maqsadga erishish jarayoniga jalb qila bilishi kerak.

Bu ko'rsatkich mehnat unumdorligining teskarisi bo'lib, uning hajmi qancha yuqori bo'lsa, natijaning yomonlashganligi va aksi bo'lsa, (ya'ni past bo'lsa) natijaning yaxshilanganligidan dalolat beradi. O` asosan ishlab chiqarish korxonalarida aniqlanadi. Ishlab chiqarish korxonalarida aniqlanishi mumkin bo'lgan texnologik mehnat sig'imini, ishlab chiqarish mehnat sig'imini farqlash va anglash lozim.

Ijtimoiy mahsulot sig'imi - bu ko'rsatkich xom-ashyo materiallar, yonilg'i, energiya va boshqa mehnat predmetlari harajatlarining yangi ijtimoiy mahsulotga bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi. Ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot sig'imi shu mahsulotni yaratilishi uchun ketgan moddiy harajatlarning jami ishlab chiqarilgan mahsulotga bo'lgan nisbati orqali aniqlanadi.<sup>10</sup>

Samaradorlikni tashkil etuvchi omillar va uni ifodalovchi konkret ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ishlab chiqarish «korxonalar iqtisodiyoti» fanida va xo'jalik tajribasida hozirgi vaqtda samaradorlikning mavjud ko'rsatkichlari bilan bir qatorda murakkab, umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni ham qo'llash haqidagi masala qo'yilmokda.

Qayd etilgan ko'rsatkichlar ijtimoiy samaradorlikning alohida yo'nalishlarini tavsiflaydi. O`lar birgalikda hisoblansa va ijtimoiy samaradorlikni baholashda birgalikda qo'llanilsa, ishlab chiqarishning ijtimoiy samaradorligiga to'liq baho berish imkoniyatini tug'diradi. Ishlab chiqarishning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari uzviy bog'liq.

Ijtimoiy samarani oshirmasdan turib iqtisodiy samarani o'stirib bo'lmaydi va aksincha, nisbati, qiyosiy iqtisodiy samaradorlik esa turli variantlar o'rtasidagi joriy harajatlarning farqining kapital xarajatlarning farqiga nisbati ko'rinishida aniqlanadi. O`mumiy va qiyosiy iqtisodiy samaradorlik bir-birini to'ldiradi, ular asosida

---

<sup>10</sup> Salomatin N.A. «Upravleniye proizvodstvom: sistemnoye predstavleniye» M., Iz. standartov 1993.

harajat va natijani solishtirish yotadi. O`lardan quyidagilarni hal etishda foydalaniladi:

- kapital harajatlarni talab etuvchi masalarni hal etishda eng yaxshi variantni tanlashda;
- ko`rib chiqilayotgan variantlardan eng yaxshisini amalga oshirish sharoitida solishtirilib ko`rilayotgan variantning mavjud bo`lgan boshqa variantlardan haqiqatda eng yaxshisi ekanligiga ishonch hosil qilishda, kapital harajatning samaradorligini baholashda.<sup>11</sup>

Kapital harajatlarning samaradorligi hal qilish xo`jaligi miqyosida milliy daromadning, tarmoqlar va ishlab chiqarish korxonasi miqyosida esa foydaning o`shishini, bu o`shishga imkoniyat yaratuvchi kapital harajatlarga munosabatini ko`rsatuvchi umumiy (absolyut) samaradorlik koeffitsiyenti bilan tavsiflanadi. Butun bir xo`jaligi harajatlarning umumiy iqtisodiy samaradorligi aniqlanganda milliy daromadning (uning o`shishiga sabab bo`lgan) kapital harajatlarga bo`lgan nisbati orqali aniqlanadi.

Ishlab chiqarish harajatlarning umumiy (absolyut) va qiyosiy, iqtisodiy samaradorligi mahsulot (ish, xizmat) birligi uchun sarflangan mablag` ishlab chiqarish harajatlari deyiladi. Harajatsiz hech qanday iqtisodiy faoliyat yuz bermaydi, uni qilmasdan turib foyda topish mumkin emas. Iqtisodiyotda harajatlarning umumiy miqdori emas, ularning samarasi muhimdir. Harajatlarning samaradorligini to`liqroq ifodalash uchun qiymat va natural ko`rsatkichlarga umumlashgan tavsif berish kerak bo`ladi. Bu maqsadga erishishda harajatlarning umumiy (absolyut) va qiyosiy, iqtisodiy samaradorligi xizmat qiladi.

Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi talabini to`laroq qondirish raqobatbardosh mahsulotlarni ko`proq ishlab chiqarish har bir ishlab chiqarish korxonasining kundalik vazifasiga aylangan. Bu esa ishlab chiqarish korxonalarini to`g`ri joylashtirish, sexlarni texnik jihatidan yangidan jihozlashtirish, amaldagi ishlab chiqarish korxonalarini rekonstruksiya qilish, eksportga mo`ljallangan

---

<sup>11</sup> Zaynutdinov Sh.N., Murakayev I. «Osnovy menedjmenta» T. «Ukituvchi»-1996.-177.

raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, bir-birining o'rnini bosa oladigan mahsulotlarni yaratish, yangi texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq xo'jalik yoki texnik masalalarni hal etishda ularning turli variantlaridan foydalanishni talab qiladi.

Bunday sharoitda harajatlarning qiyosiy iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichini hisoblash tavsiya etiladi. Ishlab chiqarish korxonasida kapital harajatlarni amalga oshirishdan oldin investision loyixalarning bir nechta varianti tuziladi va ular bir-biri bilan qiyoslanadi. Shu asosida optimal ko'rsatkich - eng kam (minimum) keltirilgan harajatlar aniqlanadi.

Har bir variantlar bo'yicha keltirilgan harajatlar deyilganda joriy harajatlar (tannarx) va kapital harajatlarning bir xil ulchamga keltirilgan ko'rsatkichlarni nazarda tutiladi. Tabaqalashtirish fan-texnika taraqqiyoti, mintaqalar hamda tarmoqlar xususiyatlari, qurilish davri va hokazolar hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish korxonalarining xo'jalik yuritish natijalarini yaxshilashda va iqtisodiy samaradorligini oshirishda ishlab chiqarish infratuzilmalarining o'rnini beqiyosdir.

Ishlab chiqarish infratuzilmasiga xilma-xil turdagi obyektlar, aloqa, elektr, neftg', gaz, suv ta'minoti tizimi, moddiy-texnikaviy ta'minot (omborxonalar, muzlatgichlar, mahsulotni saqlash joylari va h.k.), ma'lumotlarni qayta ishlash va hisoblash texnikalari – kompyuterlar, internet tarmoqlari kiradi. Ishlab chiqarish infratuzilmalari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkich sifatida ishlab chiqarish samaradorligi hisoblanadi, ya'ni bularga transport vositalaridan to'g'ri va to'la foydalanish, elektr energiya, gaz, suv hamda yonilg'ini har bir so'mlik ishlab chiqilgan mahsulotga sarfini kamaytirib borish, omborxonalardan, muzlatgichlardan samarali foydalanish, kompyuter texnologiyasini ishlab chiqarish jarayonlarini ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirishda keng qo'llash va hokazo hisoblanadi.<sup>12</sup>

---

<sup>12</sup> Vixanskiy O. S. Naumov A.I. «Menedjment». M: 1994.

Ishlab chiqarish korxonasi faoliyatini tahlil qilganda, uning istiqbolini belgilaganda, faoliyatiga baho berganda yagona harajatlarning umumiy iqtisodiy samaradorligi haqida hamda hissa samaradorligi ko'rsatkichlarini o'rganish bilan chegaralanmaslik kerak. Ishlab chiqarish korxonasi faoliyati samaradorligini qo'shimcha ko'rsatkichlar – mehnat unumdorligi, fondlar sig'imi, fondlar qaytimi, kapital qo'yilmalar, xom-ashyo materiallarini, yonilg'i, energiya, ishlab chiqarish harajatlari darajasining pasayishi hamda ijtimoiy natijalari ko'rsatkichlari orqali o'rganish zarurdir.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida ishlab chiqarish korxonasi faoliyatiga baho berish mezonini sifatida foyda va rentabellik ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Shu sababli, ishlab chiqarish korxonasi ishlab chiqarish faoliyati, asosan foydani ko'paytirishga va rentabellik darajasini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Bu, albatta mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, maqsadsiz harajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi texnologiyani joriy etish va hokozolar hisobiga erishiladi.

Ishlab chiqarish korxonasi foyda olish uchun eng avvalo, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni realizatsiya qilishdan tushgan pul tushumi hisobidan qilingan harajatlarni qoplashi zarur. Harajatlarni hajmi qancha past bo'lsa, foyda shuncha ko'p bo'lishi hammaga ayondir. Shunday ekan, har bir ishlab chiqarish korxonasi faoliyatida yangilikni joriy etish va investisiyalarni jalb qilish zaruriy jarayonga aylanib borishi kerak.

Zero, yangilikni joriy etish va investisiya kiritish hozirgi iqtisodiy sharoitda korxonalariga yangi sanoat texnologiyalarini kiritishning eng qulay va ma'kul bo'lgan shakllari hisoblanadi. Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishga investisiyalarni jalb etish ishlab chiqarish korxonasi faoliyatiga yangilikni kiritishga asos bo'lib hisoblanadi.<sup>13</sup>

---

<sup>13</sup> Upravleniye organizatsiyey. Porshneva A.G. dr. M., «INFRA-M», 2000.

Ishlab chiqarish korxonasi faoliyatining bozor talabi bilan bog'liqligi sababli yangilikni joriy etishning iqtisodiy tabiati bozor talabi orqali belgilanadi: bozor yangiliklarining fan-texnika yangiliklaridan ustunligi sababli u asosiy omilga aylanadi. Ishlab chiqarish korxonasiga investisiya va yangilikni joriy etishdagi bosh maqsad – bozor talabini qondirish asosida yuqori foyda olishdir.

Harajatlarni qoplash muddati – harajatlar samaradorligining muhim ko'rsatkichi madaniyatli bozor munosabatlarining shakllanib borishi mobaynida tovar taqchilligining va ayrim monopol ishlab chiqarish korxonalarining yo'qolishi sababli ishlab chiqarish korxonasida foydani o'stirishning asosiy yo'li ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish harajatlarni kamaytirish bo'lib qoladi.<sup>14</sup>

Albatta, buning uchun ishlab chiqarish korxonasi mahsulot ishlab chiqarishiga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishga, ishlab chiqarish obyektlarini kengaytirishga, qayta ko'rishga va yangitdan texnik jihozlashga ehtiyoj sezishadi.

Bu esa, tabiiyki, qo'shimcha kapital harajatlarni talab qiladi. Har bir tadbirkor kapital harajatlarni qilishdan oldin ular qaysi muddat ichida o'zini qoplashini ham hisoblab chiqadi. Kapital harajatlarning samaradorligi nuqtai nazaridan ularni qoplash muddati yil hisobida bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, kapital harajat qilish natijasida mahsulot (ish, xizmat) tannarxining pasayishi yoki mahsulot(ish, xizmat)larin sotishdan olingan foyda kapital harajatlarni necha yilda qoplashi tadbirkorni qiziktiradi.

Kapital ajratmalarni amalga oshirish uchun ikkita variant mavjud bo'lsa, ularning birontasini tanlashda, ikkala variantlardagi kapital harajatlar summalari o'rtasidagi farqni variantlarning biron-biri bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulot (ish, xizmat) tannarxidan tejaladigan summaga bo'lish yo'li bilan qo'shimcha kapital harajatlarni qoplash muddati aniqlanadi. Variantlarning qaysi biri ko'proq foyda berib o'zini tezroq qoplasa shu variant tanlanadi.

---

<sup>14</sup> Najmiddinov S., Xasanov S. «Korxonani moliyaviy holatini baholash: muammolar va ularni xal qilish». «Iqtisodiyot va huquq dunyosi». 1995.

Xorijiy davlatlar ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish tizimida rahbarlarning alohida roli mavjud bo'lib, ularda doimo o'z ustida ishlash, bilimlarni takomillashtirib borish, alohida bilim sohalarini o'rganishni talab qiladi.

Hozirgi sharoitda rahbarlarning rolini aniqlash ularni ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish tizimida tutgan o'rnini belgilash imkoniyati yaratilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi zamonaviy ishlab chiqarish korxonasi rahbari (menejeri) eng avvalo pedagog, boshqaruvchi, diplomat, tarbiyachi, innovator, insoniy mavjudot tariqasida namoyon bo'lishi kerak.

Bu hislatlarning har birini amaliyotda sinab ko'rish rahbardan juda ko'p sifat va fazilatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Bu borada mehnatni ilmiy tashkil qilishning zamonaviy shaklida menejerda quyidagi sifatlarni ajratib ko'rsatish mumkin: aql, ma'lumot, texnik bilimlar, odoblilik, g'ayratlilik, qatg'iyatlilik, rostguylik va mulohazalilik<sup>15</sup>.

Zamonaviy menejer oldindan ko'ra bilishi va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi, o'z sog'ligi bilan ajralib turishi, rivojlangan aqlu zakovat sohibi bo'lishi, yuksak madaniy va axlokiy darajaga ega bo'lishi kerak. Qolaversa, hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlar firma va kompaniyalarda menejer qanaka sifatlarga ega bo'lishi kerakligi to'g'risida o'zlarining nuqtai nazarlari mavjud. Ishlab chiqarishni samaradorlikni oshirish masalalariga oid chet el tajribalari bilan tanishish shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik AKSh, Yevropa va Osiyo-Tinch okeani regionidagi raqobatga bardosh beradigan firma va kompaniyalar qat'iylik bilan menejerlik san'atini o'rganib, uni amaliyotda ustalik bilan tatbiq qilish natijasida katta muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar.

---

<sup>15</sup> Kempbel D., Stonxaus Dj., Xg'yuston B. Strategicheskij menedjment: Uchebnik/ Per. s angl. N.I. Almazovoy.-M.:OOO «Iz-vo Prospekt», 2003. -336 s.

## **II BOB. IQTISODIYYOTNI MODERNIZASIYALASH SHAROITIDA KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA O`LARNI PASAYTIRISH MASALALARI**

### **2.1. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash borasida erishilgan natijalar**

Mamlakatimizda mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tilgan davrdan boshlab Prezidentimiz tomonidan har bir yil yakuniga ko'ra erishilgan yutuq va natijalarni sarhisob qilib, kelgusi yilda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab olish an'anaviy tarzda amalga oshirilib kelmoqda. Bu tadbirning o'ziga xos ijobiy jihatlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- birinchidan, mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligi, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish chora-tadbirlari hamda dasturlarining izchil va puxta asoslanganligini baholash;

- ikkinchidan, xalqimizning yil davomidagi fidokorona mehnati natijalarini e'tirof etish;

- uchinchidan, kelgusi yilda ustuvor e'tibor qaratish lozim bo'lgan vazifa va yo'nalishlarni belgilash, yetarli darajada foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlash;

- to'rtinchidan, iqtisodiyotimizning turli soha va tarmoqlari, mamlakatimizning barcha hududlaridagi iqtisodiy salohiyatni o'zaro muvofiqlashtirilgan holda yanada to'laroq safarbar etish va boshqalar.

Shu yilning 18 yanvarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yilning asosiy yakunlari va 2014 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzada Prezidentimiz mamlakatimizni rivojlantirish, yangilash, modernizasiya qilishning to'g'ri tanlangan strategiyasi, qabul qilingan 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturini bajarish borasida o'tgan yilda kuch va imkoniyatlarning safarbar qilinishi tufayli global inqirozning oqibatlari va tahdidlariga nafaqat bardosh berishga, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning

barqaror sur'atlarini, xalq bardamligi va farovonligini oshirishni ta'minlashga muvaffaq bo'linganligini ta'kidlab o'tdi.

Ma'ruzada avvalo 2009-2012 yillarga mo'ljallangan inqirozga qarshi choralar dasturi samaradorligini xolisona baholash muhim prinsipial ahamiyat kasb etishi ta'kidlanib, bu 2010 yilda va undan keyingi yillarda ushbu dasturni amalga oshirish jarayonida, zarurat tug'ilishiga qarab, unga tegishli o'zgartirishlar kiritishda ana shu tahlil xulosalariga tayanishimiz mumkinligi orqali namoyon bo'lishi izohlandi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi o'zining salbiy oqibatlari bilan dunyoning aksariyat mamlakatlari iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan 2009 yil bizning mamlakatimiz uchun ham g'oyat qiyin bo'ldi. Shunga qaramay, hukumatimiz tomonidan 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan inqirozga qarshi dasturning inqiroz ta'sirini yumshatish va bartaraf etishdagi roli va ahamiyati katta bo'ldi.

Ma'lumki, 2008 yilda AQSh ipoteka kreditlash tizimida boshlanib, ko'plab rivojlangan mamlakatlarning moliya tizimini ishdan chiqargan, keyinchalik iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy sohaga sezilarli ta'sir ko'rsatib, katta talofatlar yetkazgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi vujudga kelishining dastlabki pallasidayoq O'zbekistonda inqirozga qarshi choralar dasturi ishlab chiqilgan va izchillik bilan amalga oshirish boshlab yuborilgan edi. Prezidentimizning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari» nomli asarida mazkur dasturda belgilangan quyidagi kompleks chora-tadbirlar ko'rsatib o'tilgan edi:

1) korxonalarini modernizasiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish;

2) joriy kon'yunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish;

3) qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatdoshligini oshirish;

4) elektroenergetika tizimini modernizasiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralari amalga oshirish;

5) jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash<sup>16</sup>.

Dastur o'ziga qamrab olgan, o'z vaqtida qabul qilingan hujjatlarda avvalo mamlakatimiz moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalariga yordam ko'rsatish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning puxta ishlab chiqilgani o'zining amaliy samarasini berdi. Bu borada Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan bir qator farmon, qaror va farmoyishlar hamda ularning asosiy maqsadlarini quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin (2.1.-jadval).

## 2.1.-jadval

### O'zbekiston Prezidenti tomonidan inqirozga qarshi samarali chora-tadbirlarning amalga oshirilishi belgilab berilgan qator farmon, qaror va farmoyishlari

Hujjat nomi	Sanasi va raqami	Asosiy maqsadi
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-	2008 yil 18 noyabr 4053-son	- iqtisodiyot real sektori korxonalarining kapitallashtirish darajasini yanada oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash; - iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish; - iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish;

<sup>16</sup> I.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. 31-34-b.

tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni		- ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash jarayoniga investitsiyalarni, shu jumladan, tijorat banklarining mablag'larini keng jalb etish
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni	2008 yil 28 noyabr 4057-son	- fuqarolarning omonatlarini jahon moliyaviy inqirozining ehtimol tutilgan salbiy oqibatlaridan himoyalashning ishonchli kafolatlarini ta'minlash; - mamlakat bank tizimiga aholining ishonchini tobora mustahkamlash; - aholi omonatlarini tijorat banklariga jalb qilish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi Farmoni	2008 yil 28 noyabr 4058-son	- jahon moliya-iqtisodiy inqiroziining salbiy oqibatlarini bartaraf etish; - iqtisodiyot real sektori bazaviy tarmoqlarining iqtisodiy o'sishi barqaror sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi hamda barqaror ishlashini ta'minlash; - aholi bandligiga ko'maklashish; - eksport qiluvchilar, sanoatning yetakchi tarmoqlari korxonalarini hamda kichik biznesni aniq manzilli qo'llab-quvvatlash
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori	2009 yil 20 yanvar 1041-son	- zamonaviy ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning ildam rivojlanishini ta'minlash; - shu asosda iqtisodiyotning barqaror hamda jadal taraqqiy topishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish; - respublika mintaqalarining tabiiy hamda iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish; - yangi ish o'rinlarini shakllantirish; - aholining, ayniqsa yoshlarning bandligini, odamlarning daromadlarini oshirish va farovonligini yuksaltirish
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish	2009 yil 26 yanvar 1047-son	- Respublika aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini barqaror ta'minlash; - ichki iste'mol bozorini mamlakatimizda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan bekamu-ko'st to'ldirish;

yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori		<ul style="list-style-type: none"> <li>- asosan qishloq joylarda zamonaviy yuqori unumli texnika va texnologiya bilan jihozlangan qayta ishlovchi ixcham korxonalarni jadal barpo etish;</li> <li>- shu asosda yangi ish joylarini shakllantirish;</li> <li>- ko'proq odamlarni ish bilan ta'minlash, ularning daromadlari va farovonlik darajasini oshirish</li> </ul>
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori	2009 yil 28 yanvar 1050-son	<ul style="list-style-type: none"> <li>- raqobatbardosh yuqori sifatli nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni ko'paytirish va turlarini kengaytirishni rag'batlantirish;</li> <li>- ichki iste'mol bozorini ular bilan yanada to'liqroq boyitish;</li> <li>- tayyor nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqaruvchi yangi mahalliy korxonalarni tashkil etish;</li> <li>- mavjud korxonalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash;</li> <li>- buning asosida aholi bandligini ta'minlash, insonlarning daromadlari va farovonlik darajasini oshirish</li> </ul>
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'y-joy fondini foydalanishga tayyor holda topshirish shartlarida rekonstruksiya qilish va ta'mirlash bo'yicha pudrat ishlarini kengaytirishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori	2009 yil 29 yanvar 1051-son	<ul style="list-style-type: none"> <li>- mamlakatimiz shaharlari va aholi punktlari qiyofasini tubdan o'zgartirish;</li> <li>- arxitekturaviy rejalashtirgan holda qurishni tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha keng chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish hisobiga uy-joy fondining holatini qat'iyon yaxshilash;</li> <li>- uy-joylarni foydalanishga tayyor holda topshirish shartlarida mukammal ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va qurish bo'yicha pudrat ishlarini yanada kengaytirishni rag'batlantirish</li> </ul>
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoyishi	2008 yil 19 noyabr 4010-son	<ul style="list-style-type: none"> <li>- iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotishning samarali mexanizmini yaratish</li> </ul>

**Manba:** I.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. 31-34-b.

Bugungi sharoitda esa bunday ijobiy o'zgarish iqtisodiyotimizning istiqboldagi taraqqiyoti uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Aytish kerakki, tashqi qarzar aksariyat hollarda uzoq muddatga, faqat iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizasiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha investisiya loyihalarini moliyalash uchun jalb qilinmoqda.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash borasida e'tiborli jihatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 10 noyabrdagi 4051-sonli «Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat bankining tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq:

- tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun 18 oygacha muddatga beriladigan eng kam ish haqining 200 barobari miqdoridagi imtiyozli mikrokreditlar bo'yicha maksimal stavkani yillik 5 foizdan 3 foizga;

- kichik biznes subyektlari faoliyatini kengaytirish va aylanma mablag'larini to'ldirish uchun 24 oygacha muddatga beriladigan eng kam ish haqining 500 barobari miqdoridagi mikrokreditlar bo'yicha – Markaziy bank tomonidan qayta moliyalashtirish stavkasining 100 foizidan 50 foiziga;

- kichik biznes subyektlari uchun 3 yilgacha muddatga beriladigan eng kam ish haqining 2000 barobari miqdoridagi imtiyozli mikrolizing xizmatlari bo'yicha maksimal stavkani yillik 7 foizdan 5 foizga tushirildi.

Kreditlashda bunday ahamiyatli imtiyozlarning belgilanishi mazkur soha vakillari tomonidan kreditga bo'lgan talabning va ayni paytda ularga berilayotgan kredit hajmining yildan-yilga oshib borishiga olib kelmoqda. Jumladan, 2005-2009 yillar davomida tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga berilgan jami kreditlar miqdori 4,4 barobar, mikrokreditlar miqdori esa 7,1 barobar oshgan.

Shu o'rinda tijorat banklari kreditlari to'g'risida so'z borganda ularning maqsad yo'nalishlari jihatidan tarkibi ham takomillashib borayotganligini ta'kidlash lozim.


So'nggi o'n yilda iqtisodiyotning real sektorlarini kreditlashga yo'naltirilgan ichki manbalar 25 barobardan ziyodroq ko'paydi. 2009 yilda jami bank kreditlari tarkibida uzoq muddatli kreditlarning ulushi 78,3 foizni tashkil etgan.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinadiki, mamlakatimizdagi bank-moliya sohasining tobora mustahkamlanib borishi amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar moliyaviy ta'minotining kuchayishiga, iqtisodiyot real sektorining har tomonlama qo'llab-quvvatlanishiga hamda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarining ta'minlanishiga zamin yaratmoqda.

## **2.2. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash va tannarxni pasaytirishning asosiy yo'nalishlari**

Mamlakatimiz iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo'lish va shu orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish Vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. O'shbu maqsadga erishish uchun esa eng avvalo iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish zarur bo'ladi.

Shunga ko'ra, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash dolzarb ahamiyat kasb etib, respublikamizda ushbu jarayon bir qator asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi (2.1-rasm).



**2.1-rasm. Iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari**

Ayniqsa, real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlashda ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, kooperasiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutdi.

Iqtisodiyotning real sektori – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohasi bo'lib, u o'z ichiga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarini oladi.

Ishlab chiqarishni modernizasiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizasiyalashning asosiy yunalish va vositalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: korxonalaridan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarish; ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovasion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.

Kooperasiya aloqalari – turli soha ishlab chiqarish tarmoqlarida ma'lum mahsulotni tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli aloqalarni o'rnatish.

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni modernizasiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlarining keng ko'lamda amalga oshirilishi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq, bu boradagi jiddiy muammo – ayrim mahsulotlarimiz tannarxining yuqori darajada qolayotganligi ularning raqobatdoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.


Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi (2008 yil 28 noyabr) 4058-sonli Farmonida muhim chora-tadbirlar qatorida mahalliy ishlab

chiqaruvchi korxonalarining barcha resurslardan samarali foydalanishi hisobiga mahsulot tannarxini 20 foizdan kam bo'lmagan miqdorda pasaytirish orqali ularning raqobatdoshligini ta'minlash vazifasi ham belgilab berilgan edi.

Kreditor qarzdorlik – korxonalar, tashkilot yoki muassasaning tegishli yuridik yoki jismoniy shaxslarga to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'lari bo'lib, ular me'yordagi (muddati o'tmagan) hamda muddati o'tgan qarzdorliklarga bo'linishi mumkin.

Mahsulot tannarxi – mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog'liq barcha xarajatlar.

O'shbu vazifani amalga oshirish doirasida mamlakatimiz korxonalarida tannarxni pasaytirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarga alohida e'tibor qaratildi (2.2-rasm).



**2.2.-rasm. Tannarxni pasaytirishning asosiy yo'nalishlari**

Natijada 2011 yil mobaynida sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi 18 foizga, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, «O'zmetkombinat» aksiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasi, «O'zeltexsanoat» uyushmasi, «O'zqurilishmateriallari» kompaniyasi singari va boshqa korxonalar va tarmoqlarda 20-25 foizga kamaydi. Jumladan, respublikamizda iqtisodiyot komplekslari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish

bo'yicha erishilgan natijalarni quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin (2.2-jadval).

## 2.2-jadval.

### 2012 yilda O'zbekistonda iqtisodiyot komplekslari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish bo'yicha erishilgan natijalar

Komplekslar nomi	Mahsulot tannarxining pasayishi	
	mlrd. so'mda	foizda
Geologiya, yoqilg'i-energetika, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya sanoati kompleksi	1156,3	21,9
Mashinosozlik, elektrotexnika va aviasiya sanoati hamda mahsulotlarni standartizasiyalashtirish kompleksi	156,2	18,5
Kommunal soha, transport, kapital qurilish va qurilish industriyasi kompleksi	458,8	21,3
Qishloq va suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda iste'mol tovarlari kompleksi	295,1	20,0
Ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy muhofaza kompleksi	13,1	20,2
<b>Respublika bo'yicha jami</b>	<b>2079,5</b>	<b>20,38</b>

Manba: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

Jadvaldan ko'rinadiki, 2012 yilda respublikamiz bo'yicha mahsulotlar tannarxini 2079,5 mlrd. so'mga yoki 20,38 foizga qisqartirishga erishilgan.

Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashdagi muhim tadbirlardan yana biri – turli sabablarga ko'ra vujudga kelgan hamda korxonaning sog'lom moliya-xo'jalik faoliyati yuritishiga jiddiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan qarzlarni qayta ko'rib chiqish (restrukturizasiya qilish) hisoblanadi. Mazkur tadbir orqali korxonalarining mavjud qarzlarning vujudga kelish sabablari va ularni to'lash imkoniyatlari o'rganiladi. Har bir korxonaning ahamiyati, yaxlit xo'jalik tizimida tutgan o'rni, boshqa korxonalar bilan ishlab chiqarish va xo'jalik aloqalarini hisobga olgan holda mazkur qarzlarni to'lash muddatlarini kechiktirish, ular bo'yicha qo'llanishi mumkin bo'lgan turli sanksiyalarni bekor qilish, zarur hollarda, ushbu qarzlarni umuman ro'yxatdan chiqarish kabi choralar belgilanishi

mumkin. Xususan, 2013 yil davomida ham davlat tomonidan real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 50 ta korxonaning byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan hamda joriy kreditor qarzdorligi qayta ko'rib chiqildi. Bu mazkur korxonalar tasarrufida 350 milliard so'mdan ortiq mablag'ni qoldirish, ularning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish imkonini berdi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda ularni sog'lomlashtirish tadbirlari ham muhim o'rin tutadi. Zero, uzoq davr mobaynida sifatsiz mahsulotni ishlab chiqarish, eskirgan texnika va texnologiya asosida zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni saqlab qolish iqtisodiyotning sog'lomligiga jiddiy putur yetkazishi mumkin. Bunday korxonalarni bankrot deb e'lon qilish hamda moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tarkibiy o'zgartirish orqali qayta tuzish bu boradagi eng to'g'ri va samarali yechim hisoblanadi.

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi 4053-sonli «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida ko'zda tutilgan iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayoniga tijorat banklarining mablag'larini kengroq jalb qilishni yo'lga qo'yish tadbirlari muhim hisoblanadi.

Qarorda Respublika Komissiyasining qarori asosida bankrot korxonalarni tijorat banklariga sotish yoki to'g'ridan-to'g'ri balansiga berishning 3 ta mexanizmi ko'zda tutilgan:

1) bankrot korxonani kreditorlik qarzi tarkibining 70 foiz va undan ortiq qismini bank kreditlari tashkil etsa, u holda korxonani tijorat banklari balansiga berish;

2) bankrot korxonani auksion savdolari orqali eng yuqori narxni taklif qilgan va tegishli majburiyatni o'z zimmasiga olgan tijorat banklariga sotish;

3) bankrot korxonani tanlov savdolari orqali tijorat banklariga «nol» qiymatda investision majburiyat sharti bilan sotish.

O`shbu tadbirlar mamlakatimizdagi bankrot korxonalarni tarkibiy qayta tuzish hamda yangi xo`jalik faoliyatini yo`lga qo`yish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirdi.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrdagi 4010-sonli «Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish tartibini tasdiqlash to`g`risida»gi Farmoyishi bilan iqtisodiy nochor korxonalarining moliyaviy qobiliyatini tiklash bo`yicha bir qator imtiyozlar (ko`maklar) berilgan edi. Jumladan, ushbu Farmoyishga ko`ra:

- tijorat banklariga bankrot korxonalar yoki ular mol-mulkinging berilishi, sotilishi, ularning xo`jalik yurituvchi subyektlar ustav jamg`armalariga kiritilishi, shuningdek banklar tomonidan bankrot korxonalar mol-mulki negizida yangidan tashkil etilgan xo`jalik subyektlarini qayta sotish qo`shilgan qiymat solig`idan ozod qilindi;

- bankrot korxonalar negizida yangi tashkil etilgan xo`jalik yurituvchi subyektlar uch yil davomida foyda solig`i, yagona soliq to`lovi, mulk solig`i va yer soliqlarini to`lashdan ozod qilindi;

- boshqaruv kompaniyalarga berilganda foyda solig`i va yagona soliq to`lovidan ikki yil davomida ozod qilindi. Buning natijasida sobiq bankrot hisoblangan, endilikda tarkibiy qayta tuzish orqali faoliyatini yangilagan korxonalarining faoliyat ko`rsatkichlarida sezilarli o`zgarishlar ro`y berdi.

Shuningdek, yuqorida qayd etilgan me`yoriy hujjatlar orqali tijorat banklariga ham muayyan imkoniyatlar berilgan edi. Jumladan:

- qarzlarni to`lash hisobiga undirilgan yoki auksion va tanlov savdolarida sotib olingan mol-mulk negizida tijorat banklarining korxonalar ustav jamg`armasidagi ishtiroki ulushi 100 foizgacha bo`lgan yangi korxonalarni tashkil etish;

- bankrot korxonaning tugatilishi munosabati bilan unga avval berilgan, qoplanmagan kreditini, shu jumladan Hukumat kafolati bilan berilgan kredit summasini bank kengashining qarori bilan hisobdan chiqarish;

- bankrot korxonaga uchun malakali boshqaruv kompaniyasini tuzish va jalb qilish;

- bankrot korxonani tugatish bahosida sotib olib, uning faoliyatini tiklab, qaytadan bozor bahosida sotish va h.k.

Ayni paytda mazkur jarayonning samaradorligini va ta'sirchanligini ta'minlash maqsadida tijorat banklariga bir qator majburiyatlar yuklangan edi. Jumladan:

- tijorat banklari balansiga o'tkazilgan bankrot korxonalarini tiklash, texnik va texnologik modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni qayta qurollantirish, zarur bo'lganda korxonani to'liq restrukturizatsiya qilish orqali faoliyat yo'nalishini o'zgartirish, strategik hamkorlar va investorlarni jalb qilishni nazarda tutuvchi biznes-rejalarni ishlab chiqish;

- yollangan har bir korxonaga boshqaruvchisi ishlab chiqarishda kutilgan natijalarga erishishi orqali ishlab chiqarishlarga zamonaviy va yuqori malakali boshqaruvchilarni jalb qilish ishlarini olib borishi;

- banklar tasarrufiga berilgan bankrot korxonalarini kelgusi faoliyati ustidan Iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish bo'yicha Respublika komissiyasida hisobot berishlari yo'lga qo'yilgan.

Past rentabelli va iqtisodiy nochor korxonalarini tugatish va bu jarayonga tijorat banklarini jalb qilish borasida belgilangan tadbirlar korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim rol o'ynadi. Prezidentimiz ma'ruzasida ta'kidlanishicha, 2009 yilda mamlakatimiz bo'yicha, yirik korxonalarini ham qo'shganda, jami 240 ta korxonaga bankrot deb e'lon qilindi. Ayni paytda ularning 154 tasi yangi mulkdorlarga sotildi, 86 tasi esa tijorat banklari balansiga o'tkazildi.

Bugungi kunda tijorat banklari balansiga o'tkazilgan 70 ta iqtisodiy nochor korxonada ishlab chiqarish to'liq qayta tiklanib, istiqbolli sarmoyadorlarga sotildi, qolganlarida moliyaviy sog'lomlashtirish ishlari olib borilmoqda.

**Rentabellik** – korxonaga faoliyatining foydalik darajasi. O'ning uch xil ko'rsatkichi mavjud: korxonaga aktivlari rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi va sotilgan mahsulot rentabelligi. Bu ko'rsatkichlarni balansdagi (sof) foyda

ko'rsatkichini korxonalar aktivlarining o'rtacha yillik qiymati, muomalaga chiqarilgan aksiyalar miqdori, xususiy kapital miqdori va sotilgan mahsulot tannarxiga nisbati bilan aniqlanadi.

**Iqtisodiy nochor korxonalar** – kreditorlarning tovar (ish, xizmat)lar haqini to'lash bo'yicha talablarini qondirish, shuningdek, byudjet va nobyudjet fondlariga majburiy to'lovlarni ta'minlashga layoqatsiz bo'lgan korxonalar.

**Korxonaning bankrotligi** – korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining nochorlikka yuz tutishi natijasida o'z qarz majburiyatlari bajara olmasligi. Korxonalar xo'jalik sudining qaroriga ko'ra rasmiy holda bankrot deb e'lon qilinadi.

Bu borada ko'rilgan chora-tadbirlar mamlakatimiz iqtisodiyotini ortiqcha yukdan xalos qilish, byudjet va ish haqi bo'yicha umumiy miqdori 1 trillion so'm kreditorlik qarzini uzish, bankrot korxonalar negizida 100 dan ortiq yangi turdagi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, qo'shimcha ravishda 17 mingdan ortiq ish o'rni yaratish imkonini berdi.

Iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlash borasidagi muhim yo'nalishlardan yana biri – bu sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonidir.

**Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish** – sanoat ishlab chiqarishining turli bosqichlarida import shaklida xarid qilish orqali qo'llaniluvchi detallar, butlovchi qismlar, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni mahalliy xom ashyo va materiallar asosida ishlab chiqarishga o'tkazish jarayoni.

**Import o'rnini bosish samarasi** – mahalliyashtirish jarayonini amalga oshirish orqali ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar natijasida tejalgan import mahsulotlari qiymati.

Ma'lumki, mahalliyashtirish jarayoni iqtisodiyotning jadal va barqaror rivojlanishini ta'minlash, uning tashqi omillarga bog'liqligini kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi, samarali texnologiyalarni tatbiq qilishni jadallashtirish, mahalliy xom ashyo va ishlab chiqarish resurslaridan keng foydalanish, shuning asosida zamonaviy raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, valyuta mablag'laridan tejamli va oqilona foydalanish,

shuningdek yangi ish joylarini yaratish imkonini beradi. Shuningdek, mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi quyidagi ijobiy jihatlar bilan tavsiflanadi:

- mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish;
- sanoat turli tarmoqlarining qo'shilgan qiymati yuqori darajada bo'lgan mahsulotlar eksportini ko'paytirish va tegishli ravishda, an'anaviy eksport salmog'ini kamaytirish;
- samarali ichki va tarmoqlararo ishlab chiqarish kooperasiya aloqalarini rivojlantirish;
- iqtisodiyotning real sektorida mamlakatimiz korxonalarining kooperasiyasi salohiyatidan yuqori darajada foydalanish;
- mahalliy xom ashyoni qayta ishlashni kengaytirish, ishlab turgan korxonalarini zamonaviylashtirish va yangilarini tashkil etish hisobiga iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish va h.k.

Ma'lumotlarga ko'ra, keng ko'lamli ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi doirasida 2010 yil davomida 333 ta korxonaga negizida 843 ta amalga oshirilayotgan loyiha bo'yicha 2854,0 mlrd. so'm hajmida mahsulotlar ishlab chiqarilgan (2.3-rasm). Neft-gaz uskunalari, kimyo sanoati mahsulotlari, avtomobil sanoati uchun butlovchi qismlar va boshqa 120 dan ortiq yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilib, 2 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratildi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida mahsulot turlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilga nisbatan 2,3 barobar o'sib, import o'rnini bosish samarasi 1,9 mlrd. doll. tashkil etdi.

Bundan ko'rinadiki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimizda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari izchil amalga oshirilishi barqaror va mutanosib o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratdi.



Manba: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

### 2.3-rasm. Maxalliyashtirish bo'yicha amalga oshirilgan loyixalar va ularda ishtirok etgan korxonalar soni.

#### 2.3. Korxonalarining eksport salohiyatini mustahkamlash va soliq yukini yengillashtirish borasida amalga oshirilgan tadbirlar

Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida amalga oshirilgan yana bir yo'nalish – mamlakatimizdagi mahsulot eksport qiladigan korxonalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, eksport salohiyatini mustahkamlash bo'yicha qabul qilingan amaliy choralar muhim ahamiyatga ega bo'ldi.


Korxonaning eksport salohiyati – muayyan korxonaning o'zida mavjud bo'lgan yoki ishlab chiqarilayotgan resurslari, mahsulotlarini eksportga chiqarish imkoniyati, qobiliyati.

Ma'lumki, 2009 yilda mamlakatimizda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratishga alohida e'tibor qaratilgan edi. Xususan:

– aylanma mablag'larini to'ldirish uchun korxonalariga Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 70 foizidan ortiq bo'lmagan stavkalarda 12 oygacha bo'lgan muddatga imtiyozli kreditlar berish;

– tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investisiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalarni byudjetga barcha turdagi soliq va to'lovlardan – qo'shimcha qiymat solig'i bundan mustasno – ozod qilish muddatini 2012 yilgacha uzaytirish;

– banklar kreditlari bo'yicha to'lov muddati o'tgan va joriy qarzlari miqdorini qayta ko'rib chiqish, byudjetga to'lanadigan to'lovlarning penyasidan kechish va boshqa muhim imtiyoz va preferensiyalar berish shular jumlasidandir (2.1.-rasm).




### **2.1.-rasm. Eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash choralari**

2012 yil mobaynida eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash va ularning barqaror faoliyatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan choratadbirlar qatorida tijorat banklari tomonidan aylanma mablag'larni to'ldirish uchun 233,5 mlrd. so'mlik imtiyozli kreditlar ajratilganligi, 105,8 mlrd. so'm miqdorida

byudjet oldidagi va yetkazib berilgan elektr energiyasi, tabiiy gaz va kommunal xizmatlar qarzlari to'lash muddatlarini keyinga surilganligi, barcha turdagi energiya manbalari va asosiy kommunal xizmatlar uchun narxlar o'sishi o'rtacha 7,7%, ya'ni past darajada saqlab qolinganligini ta'kidlash mumkin. Bu esa jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mahsulotni eksport qilish bo'yicha yuzaga kelgan vaqtinchalik qiyinchiliklarga qaramasdan, eksport qiluvchi korxonalarda ishlab chiqarishning pasayishini oldini olish imkonini berdi.

Mahsulot eksport qiladigan korxonalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida ularning barqaror ishlashini ta'minlashga, 2011 yilda eksport hajmini 2,4 foiz oshirishga erishildi. Bu o'tgan yili tashqi savdo aylanmasini 2,3 milliard dollardan ko'proq ijobiy saldo bilan yakunlash imkonini berdi (2.2-rasm).

Bunday natija, o'z navbatida, mamlakatimiz to'lov balansining ishonchliligi va iqtisodiyotimiz barqarorligini yanada mustahkamlashga imkon berdi.



Manba: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

## 2.2.-rasm. O'zbekistonda tashqi savdo aylanmasi hajmining o'sishi, (mlrd. AQSh doll)

Dastur doirasida amalga oshirgan yana bir muhim tadbir – soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish

bo'yicha xo'jalik tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'shimcha choralar ko'rilganidir. Xususan, keyingi yillarda mamlakatimizdagi bir qator soliq stavkalari ahamiyatli darajada pasaytirilib borilmoqda (2.1-jadval).


**2.1-jadval.**

**O'zbekistonda soliq stavkalarining pasaytirilishi**

<b>Soliq va boshqa majburiy to'lovlar turi</b>	<b>2000 yil</b>	<b>2011 yil</b>
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	31	8
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	15%, 25%, 36%, 40%	11%, 17%, 22%
Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi	15	6
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4,0	3,5
Yagona ijtimoiy to'lov	40	25

**Manba:** O`z R Soliq Qumitasi ma'lumotlari

Jadvaldan ko'rinadiki, keyingi o'n yil mobaynida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi 3,4 barobar, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 2,1 barobar, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 1,1 barobar, yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 1,6 barobar pasaytirilgan. Buning natijasida mamlakatimizdagi umumiy soliq yuki ham yillar davomida sezilarli ravishda pasayib bormoqda (2.3.-rasm).



**Manba:** O`z R Soliq Qumitasi ma'lumotlari

**2.3.-rasm. O'zbekistonda soliq yukining o'zgarishi dinamikasi, YaIMga nisbatan foizda**

Rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, agar 2000 yilda respublikamizdagi soliq yuki 37,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2009 yilga kelib 22,6 foizni tashkil etdi, ya'ni 1,6 barobardan ko'proq qisqargan. 2010 yilda bu ko'rsatkichni yanada pasaytirish, ya'ni 21,8 foiz darajasiga tushirish ko'zda tutilmoqda.

2009 yilda mamlakatimizdagi yengil va oziq-ovqat sanoatining iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturida ishtirok etayotgan korxonalar uchun keng ko'lamli qo'shimcha soliq va bojxona imtiyozlari berildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 27 yanvardagi 1048-sonli qaroriga ko'ra butlovchi qismlar va detallar, tayyor mahsulotlar, materiallar va xom ashyo turlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar 2011 yil 1 yanvargacha:

- chetdan keltiriladigan texnologik asbob-uskunalar va ular uchun ehtiyot qismlar, shuningdek mahalliyashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarishda texnologik jarayonda foydalaniladigan, respublikada ishlab chiqarilmaydigan komponentlar uchun bojxona to'lovlari (bojxonada rasmiylashtirish yig'imlaridan tashqari);

- mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha foyda solig'i, yagona soliq to'lovi (soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llaydigan subyektlar uchun);

- mahalliyashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari bo'yicha mulk solig'i to'lashdan ozod qilindilar.

O'y-joy qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha yangi tashkil qilinayotgan ixtisoslashtirilgan pudrat tashkilotlari 5 yil muddatga barcha turdagi soliqlardan ozod etildi. Korxonalar muassislarining kapitallashuv va investisiya kiritishga yo'naltiriladigan dividendlari ham ana shu muddatga soliqqa tortilmaydigan bo'ldi.

Natijada Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish doirasida soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish hisobidan 500 milliard so'mdan ortiq mablag' xo'jalik subyektlari tasarrufida qoldirildi. Bu mablag' ularning aylanma mablag'larini to'ldirish, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash, yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish, ishchilarni moddiy rag'batlantirish uchun yo'naltirildi.

## **2.4. Zarar ko'rib ishlayotgan va iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish jarayonida banklarning ahamiyatini oshirish**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 noyabrdagi 4010-sonli «Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish to'g'risidagi tartibni tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoyishi bilan iqtisodiy nochor korxonalarining moliyaviy qobiliyatini tiklash bo'yicha bir qator imtiyozlar (ko'maklar) berilgan.

Tijorat banklarini zarar ko'rib ishlayotgan va iqtisodiy nochor korxonalarni sog'lomlashtirish jarayoniga jalb qilish tajribasi amalda o'zini to'la oqladi.

Hali ham eski texnika va texnologiyalar asosida ishlayotgan, hiech qanday iqtisodiy istiqboli bo'lmagan korxonalarni tugatish va ularning negizida yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish darkor (*I.Karimov ma'ruzadan*).

Yuqorida qayd etilgan me'yoriy hujjat orqali tijorat banklariga ham muayyan imkoniyatlar berilgan. Jumladan:

- qarzlarni to'lash hisobiga undirilgan yoki auksion va tanlov savdolarida sotib olingan mol-mulk negizida tijorat banklarining korxonalar ustav jamg'armasidagi ishtiroki ulushi 100 foizgacha bo'lgan yangi korxonalarni tashkil etish;

- bankrot korxonaning tugatilishi munosabati bilan unga avval berilgan, qoplanmagan kreditini, shu jumladan Hukumat kafolati bilan berilgan kredit summasini bank kengashining qarori bilan hisobdan chiqarish;

- bankrot korxonalar uchun malakali boshqaruv kompaniyasini tuzish va jalb qilish;

- bankrot korxonani tugatish bahosida sotib olib, uning faoliyatini tiklab, qaytadan bozor bahosida sotish va h.k.

Ayni paytda mazkur jarayonning samaradorligini va ta'sirchanligini ta'minlash maqsadida tijorat banklari balansiga o'tkazilgan bankrot korxonalarni tiklash, texnik va texnologik modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni qayta qurollantirish, zarur bo'lganda korxonani to'liq rekonstruksiya qilish orqali faoliyat

yo'nalishini o'zgartirish, strategik hamkorlik va investorlarni jalb qilishni nazarda tutuvchi biznes-rejalarni ishlab chiqish belgilangan.

Tijorat banklarining likvidligini tartibga solgan holda, 2009 yilda belgilangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish, shuningdek, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash maqsadida Markaziy bank tasarrufida bo'lgan barcha bozor dastaklarini qo'llash ko'lamini kengaytirdi.

Bank tizimi likvidligini tartibga solish dastagi sifatida 2009 yil davomida Markaziy bank tomonidan muntazam ravishda keng qo'llanildi. Shuningdek, Moliya vazirligi tomonidan muomalaga chiqarilgan Davlat o'rta muddatli obligasiyalari va Markaziy bankning obligasiyalari bilan birlamchi va ikkilamchi bozorlarda oldi-sotdi operasiyalari amalga oshirilib borildi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda Markaziy bank boshqaruvi asosida bank tizimida bir qancha amaliy ishlar olib borildi. Jumladan, korxonalarining moyaviy faoliyati bilan bog'liq xollarga quydagilar kiradi;

- Respublika Markaziy banki tomonidan belgilangan hisob kitoblari doirasida va ulardan yuqori doirada qisqa muddatli hamda muddatli kreditlar bo'yicha, shu jumladan to'lov muddati o'tgan va qilingan ssudlar bo'yicha to'lovlar;

- mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga olish (lizing) bo'yicha haq to'lash xarajatlari;

- chet el valyutasi Bilan operasiyalar bo'yicha salbiy kurs va zararlar;

- sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, sho'ba korxonalariga va ularga) mablag'larni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar;

- o'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish va tarqatish Bilan bog'liq xarajatlar;

- moliyaviy faoliya bo'yicha boshqa xarajatlar, shu jumladan salbiy diskont.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlari va ularni pasaytirishning nazariy va amaliy masalalarini o'rganib, mazkur ishni bajarishda quyidagi xulosalarga keldik.

1. Korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlari va ularni pasaytirishning nazariy va amaliy masalalari iqtisodiy adabiyotlarda kam yoritilganligiga guvoh bo'ldik. Shu tufayli, korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari va ularni pasaytirish bilan bog'liq tushunchalarni topishga harakat qildik va ishda ular ma'lum bir tizimga keltirildi.

Shulardan kelib chiqib, korxonalar ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasiga quyidagicha tasnifladik:

Mahsulot (ish, xizmat) tannarxni tashkil qiluvchi xarajatlar iqtisodiy mazmunga ko'ra, quyidagi elementlarga asosan guruxlarga taqsimlanadi:

- moddiy xarajatlar;
- asosiy fondlar amortizatsiyasi;
- mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;
- ijtimoiy ehtiyojlarga mo'ljallangan xarajatlar;
- boshqa xarajatlar;

korxonalarining ichki potensial resurslari deganda uning faoliyatini to'liq ta'minlaydigan turli ichki manbalardan tarkib topgan resurslar tushuniladi.

2. Tadqiqotlar ko'rsatliklari, ishlab chiqarish xarajatlari qo'lami juda keng ekan. Shulardan asosiysi moddiy xarajatlardir. Moddiy xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarning eng katta qismi bo'lib, umumiy xarajatlarning 60-80 foizini tashkil qilish mumkin. Moddiy xarajatlar o'z ichiga quydagilarni qamrab oladi: xomashyo va materiallar xarajatlari; texnologik maqsadlar va xo'jalik ehtiyojlari uchun sarflanuvchi yoqilg'i va energiya; xarid qiluvchi butlovchi qisimlar va yarim tayyor mahsulotlar; sotib olingan qadoqlash va o'rov materiallari xarajatlari; mashina va asbob-uskunalarni ta'mirlash uchun ehtiyot qisimlar; boshqa korxonalar va tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan ishlab chiqarish xizmatlari; xizmat davri

bir yilgacha bo'lgan kichik qiymatli va tez eskiruvchi predmetning eskirishi yoki har bir instrument, investar, laboratoriya uskunalari va maxsus kiyim – bosh uchun eng kam oylik ish haqining 50 baravar miqdorigacha qiymati; tabiiy xomashyodan foydalanish bilan bog'liq soliq, yig'im va boshqa to'lovlar; ishlab chiqarishda bekor turib qolish va sifatsizlik (brak) tufayli yuzaga keladigan yo'qotishlar; tabiiy yo'qotishlar bilan bog'liq bo'lgan yoki aybdor shaxslar mavjud bo'lmagan holda yuzaga keladigan yo'qotishlar.

3. Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida eng salmoqlisi mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlardir. Shu nazariy xulosadan kelib chiqib, mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar – korxonalarining asosiy ishlab chiqarish personali mehnatga haq to'lashga sarflanadigan xarajatlar bo'lib, ishlab chiqarishdagi yuqori natijalar uchun mukofatlar, rag'batlantiruvchi va kompensasiya to'lovlari, jumladan, konunchilikda belgilangan me'yoriylar chegarasida narxlarning o'sishi va indeksasiya uchun to'lovlar, shuningdek, korxonada xodimlari shtatida bo'lmagan, lekin asosiy ishlab chiqarishda bind bo'lgan ishchilar uchun to'lanuvchi haqini o'z ichiga oladi.

5. Tadqiqot davomida korxonada potensial resurslari tarkibi ham tashkillashtirildi. Bularga quyidagilar kiradi: mehnat resurslari, moliyaviy resurslar va moddiy-texnika resurslari.

6. Bitiruv ishida korxonada ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish masalalariga ham ahamiyat berilgan. O'nda korxonada faoliyat ko'rsatayotgan mehnat resurslarining tarkibi va funksiyalari, ular mehnatining samaradorligini oshirish yo'llari ham ko'rsatib o'tilgan.

7. Ishda erkin raqobat sharoitida Samarqand shahrida faoliyat ko'rsatilayotgan «Sino OAJ»ning ishlab chiqarish xarajatlaridan foydalanishning hozirgi holati tahlil qilinib quyidagi umumiy xulosalarni chiqarishga asos bo'ldi.

- «Sino OAJ» korxonasida xom-ashyoni chetdan keltirish bilan bog'liq muammolar mavjud. Shu sababli korxonada integrasion o'sish strategiyasini qo'llashi, ya'ni xom-ashyo va yarim tayyor mahsulotlarning bir qismini o'zida

ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi zarur. Bundan tashqari boshqa butlovchi qismlar va materiallarni ham korxonada ishlab chiqarishi uchun xorijiy ta'minotchilar bilan hamkorlikda ish olib borilishi tannarxni kamaytirishga va korxonaning rentabelligining oshishiga olib keladi deb hisoblaymiz.

- mazkur korxonada o'z mablag'larining holati yaxshilanmoqda, ular bilan ta'minlash o'nglanmoqda va samaradorligi oshmoqda. Biz tavsiya qilinayotgan ishlab chiqarish xarajatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar korxonaning faoliyatini yetarli tarzda baholash va tahlil qilish uchun qullanilishi imkoni bulgan ko'rsatkichlar bo'lib, u o'z o'rniga boshqa korxonalar faoliyatini tahlil qilishda alohida ahamiyatga ega.

- korxonaning o'z strategiyasini aniq belgilab olgach, ilmiy tadqiqotlar asosida marketing, reklama va ishlab chiqarish jarayoni qayta ko'rib chiqilishi zarur. Buning natijasida korxonaning mahsulotlarining assortimetri strukturasi optimallashtirish imkoniyati tug'iladi. Korxonaning o'z mahsulotlari reklamasini ommaviy axborot tarqatish vositalari (internet)da tashkil etishi kerak.

8. O`mumiy xulosa qilib aytganda, korxonalarining barqaror rivojlanishida uning ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va undan foydalanish samradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa korxonaning mavjud ichki potensial resurslaridan tejimli va oqilona foydalanish lozim ekan. Agarda bizning mazkur ishda ko'tarilgan tavsiyalarimiz amaliyotga joriy qilinsa, o'ylaymizki, korxonalar erkin raqobat sharoitida o'zlarining yashovchanligini ta'minlaydi, bankrotlik degan ofatdan saqlanib qoladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### **1. O'zbekiston Respublikasining qonunlari**

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008 y.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi Qonuni. T., «Adolat», 2000.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi (25 mart 2012 y) Qonuni.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining «Mustaxkam oila yili» Davlat dasturi
- 1.5. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi. Toshkent, «O'zbekiston», 1996 y., -134 b.

### **2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari**

2. 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy ximoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida». «Xalq so'zi» 2005 yil 16 iyun, № 115 (3660).
3. 2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni ragbatlantirish borasidagi qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida». «Xalk so'zi», 2005 yil 21 iyun, № 118 (3663).
4. 2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni «Tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik soxasidagi xuquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to'g'risida». «Xalq so'zi», 2005 yil 25 iyun, № 122 (3667).
5. 2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni «Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperasiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida» (2006 y. 5 yanvar). «Ishonch» gazetasi 2006 y 6 yanvar, №3 (2052).
6. 2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva – mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora - tadbirlari to'g'risida» (2006 yil 23 mart).

7. 2.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori «O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora - tadbirlari to'g'risida» (2006 yil 17 aprel).

### **3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari**

3.1. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2011 yil 21 yanvar.

3.2. Karimov I.A. 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi «O'zbekiston ovozi», 2012-yil, 20 yanvar.

3.3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A.Karimov. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

3.4 Karimov I.A. Bizning bosh maksadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir.- T.: O'zbekiston, 2005 .82- B.

### **4. Darsliklar, o'quv qo'llanmalar va maqolalar to'plami**

8. Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari. –T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 1999.

9. Akramov E.A. Analiz finansovogo sostoyaniya predpriyatiya. –T.: TIO`, 2000.

10.Blank I.A. «Основы финансового менеджмента» , Kiyev: Nika-Sentr, 1999.

11.Bekmurodov A.Sh., G'afurov O` V, Tuxliyev B.K. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekistonning samarali iqtisodiy siyosati. O'quv qo'llanma. T.: TDIO` – 124 b.

12. Pardayev M.K., Abdukarimov I. T. , Isroilov B. I. , “Korxonaning iqtisodiy salohiyati tahlili” . T. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” 2003y.
13. Peregudov A.V., Saidov M.X. i dr. O`pravleniye kachestvom i konkurentosposobnostyu produkcii. -T.: Moliya, 2001.-204 s.
14. Zaynutdinov Sh.N., Murakayev I. «Основы менеджмента» Т. «O`kituvchi»-1996.-177.
15. Ilyenkova S.D, i dr. Proizvodstvennyy menedjment. O`chebник. YuNITI, Moskva, 2001.
16. Emerson. G. “Dvenadsat principov proizvoditelnosti truda” M., “Ekonomika”, 1999 g.-176 s.
17. Nazarov A.Sh. «Mehnatni tashkil etish va normalash» (I qism). Toshkent. 1997 yil.
18. Hasanov N., Najbitdinov S. Korxonada moliyaviy holatini baholash muammolari va ularni hal qilish. –T.: 1999.
19. G`ulomov S.S. «Korxonada iqtisodiyoti». – Toshkent 2002y.

## **5. Foydalanilgan doktorlik va nomzodlik dissertasiyalari**

- 5.1. Quvondiqov Sh.O. Xizmat soxalarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasiga davogarlik dissertasiyasi. SamISI, - Samarqand, 2008. -152
- 5.2. Qulmatov A.A. O`zbekistonda kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish muammolari. //Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan avtoreferat. - Toshkent, 2004. – 23 - b.
- 5.3. Yaxshiboyev G`. Q. O`zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy ta`minlash masalalari. //Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan avtoreferat. – Toshkent. - 2005. – 23- b.

## 6. Internet sahifalariga xavolalar

6.1. O`chebnie materiallari po Mikroekonomike. On-line-

<http://www.ic.omskreg.ru>

6.2. "Ekonomicheskoe obozrenie" jurnalining sayti <http://www.cer.uz>

6.3. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

6.4. [www.uzbektourism.uz](http://www.uzbektourism.uz)

6.5. [www.untwo.org](http://www.untwo.org)

6.6. <http://www.stat.uz>

6.7. [www.economy.gov.ru](http://www.economy.gov.ru)

6.8. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)

6.9. [uzland.uz](http://uzland.uz)

6.10. [www.stability.uz](http://www.stability.uz)

6.11. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)